

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI CHE F TILLARI FAKULTETI

RAHIMOVA SHODIYA SHUXRAT QIZI

INGLIZ VA OZBEK TILL ARID A BAHUVRINING
QO'LLANILISHI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5120112-Filologiya vatillami o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar

40' yil

№ 1

f.f.n., prof. Jumaniyazov

URGANCH- 2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
BIRINCHI BOB: O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA SO‘ZLAR VA ULARNING O‘RGANILISHI.	7
1.1. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning o‘rganilishi	7
1.2. Ingliz tilida qo‘shma so‘zlarning o‘rganilishi	16
1.3. Ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma so‘zlarning yasalishida o‘xshash va farqli tomonlar	21
Bob bo‘yicha xulosa.....	29
IKKINCHI BOB: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BAHUVRIHILAR	30
2.1. “Bahuvrihi” va uni boshqa qo‘shma so‘zlardan farqlanish xususiyatlari.....	30
2.2. O‘zbek tilida “bahuvrihi”lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari.....	34
2.2.1. Inson xarakterining nozik qirralarini ochib beruvchi bahuvrihilar.....	45
2.2.2. Insonning tashqi ko‘rinishini va ichki hislarini tasvirlovchi tarkibida tana a‘zolarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan bahuvrihilar.....	47
2.2.3. Insonning tevarak atrofdagilarga bo‘lgan munosabati va kayfiyatini anglatuvchi bahuvrihilar.....	50
2.3. Ingliz tilida “bahuvrihi”lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari....	53
Bob bo‘yicha xulosa.....	56
UMUMIY XULOSA	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	62

KIRISH

Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Shuning uchun ona tilini sevish, puxta o'rganish, uni billurdek musaffo saqlash, kamol toptirish milliy tilimiz, ona xalqimiz, jonajon vatanimizga bo'lgan beqiyos muhabbatimiz ramzidir. Dunyoga yangi kelgan chaqaloq ham ona tilida alla eshitib orom oladi, har erta tongda televideniye, radio to'lqinlaridan taraladigan davlat madhiyasini ona tilimizda eshitib, undan faxrlanamiz. Xalqimiz doim mustaqil bo'lish, erkin yashash yo'lida kurashib keldi va Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriy, A.Avloniy, G'.G'ulom, Oybek, H. Olimjon, A. Qahhor kabi siymolar adabiy tilimizning ravnaqi yo'lida tinmay ijod qildilar.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganlaridek, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruxini yo'qotmakdur. " Darhaqiqat, bir qancha murosasiz bahs va munozaralardan so'ng, biz ona tilimizni saqlab qola oldik. So'zimizning yaqqol dalili sifatida 1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi va amalda qo'llash uchun joriy etildi. Yangi tahrirdagi Qonun 24 bobdan iborat bo'lib, unga mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan bir qancha o'zgarishlar kiritildi. " Davlat tili haqida"gi Qonunni amalga oshirish sohasida o'tgan o'n yildan ortiq davrda katta ishlar qilindi.

Til faqat insonga va insoniyatga xos tabiat tomonidan ato qilingan buyuk ehsondir. Ana shu buyuk ehson kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi bo'lib, jamiyat uchun xizmat qiladi. Til faqat jamiyatda, odamlar jamoasi orasidagina mavjud, chunki til orqali insonlar o'z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar, gaplashadilar. Til doimiy to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi hodisadir. Tilning taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir.

Jamiyat yo‘q ekan, til ham bo‘lmaydi va aksincha til bo‘lmasa, jamiyatda rivojlanish ham yo‘q. Insoniyat uchun fikr almashish doimiy va hayotiy zaruratdir. Til jamiyatning asrlar davomidagi butun tarixi jarayonida shu jamiyatda yashovchi minglarcha avlodlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, jamiyat va uning a‘zolari uchun baravar xizmat qiladi. Tilning adabiyot, san‘at, umuman, madaniyat kabi ijtimoiy hodisalardan farqi shundaki, ular ma‘lum bir sinfning manfaatini ko‘zlaydi, uning mafkurasini targ‘ib qiladi, til esa jamiyatdagi barcha kishilar uchun bir xil xizmat qiladi.

Har bir tilning fonetik tuzilishi, lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi ma‘lum qonun-qoidalar asosida bir- biri bilan bog‘lanib, ularning har qaysisi alohida tizimni tashkil etadi. Misol uchun, qaysi bir tilda paydo bo‘lgan yangi so‘z yoki atama, boshqa bir til uchun ham xos bo‘lishi mumkin. Muhtaram prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, *“Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur.”* (1;87)Shu ma’noda biz ham tilimizning boyishiga, uning jahon tillari darajasidagi nufuzining ortishi, qolaversa kelajak avlodlarimizga bekami ko‘st yetkazishga xissa qo‘shish maqsadida, Yevropa tilshunosligida o‘ziga xos o‘rin egallagan “bahuvrihi” atamasining tilimiz uchun yangilik ekanligini hisobga olgan holda, Sanskrit tilining mahsuli bo‘lmish bu atamani lug‘atimiz tarkibiga kiritish tarafdorimiz va ushbu bitiruv malakaviy ishimizda “bahuvrihi” atamasi ostida nima yashirinligi, uning tabiati, morfologik va semantik xususiyatlari, qo‘llanilish o‘rni va tilimizda bu kabi so‘zlar mavjud yoki yo‘qligi imkon qadar tahlilga tortilgan.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi shundaki, unda milliy tilimiz va uning ifoda qudratini ta’minlovchi mavzulardan biri aniqlovchili qo‘shma so‘zlar keng o‘rganiladi. Chunonchi tilimizda kam o‘rganilgan aniqlovchili qo‘shma so‘zlar tahlil qilinadi, yasalishlari va ma’no jihatlarini tomonidan izohlaniladi.

Aniqlovchili qo'shma so'zlarning tildagi mohiyati, ular orqali nomlanilayotgan narsa va hodisalarning rang-barangligi talqin qilinadi va keng qiziquvchilar ommasiga tavsiya qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti va predmeti: Mavzu doirasidan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishning obyekti deb attributiv qo'shma so'z(bahuvrihi)lar, ularning qo'llanish o'rni va morfologik ,semantik jihatlarini,

tilining izohli lug'ati va o'z ichiga bahuvrihilarni qamrab olgan nasriy va nazmiy ijod namunalari misol keltirishimiz mumkin. Bu nafaqat bahuvrihining tabiati masalasiga, balki uning tilimiz uchun hali yangilik kasb etishiga ham bevosita aloqador ish hisoblanadi. Shu boisdan ishning qimmatini yana bir bor ancha yuqori ekanligini ta'kidlab o'tishning hojati yo'q, deb o'ylayman.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Milliy tilimizdan aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar-bahuvrihilar izlab topish;
2. Yig'ilgan bahuvrihilarni son va sifat (kvantitativ va kvalitativ jihatdan tahlil qilish, ularni morfologik va semantik izohlash);
3. Yig'ilgan bahuvrihilar lug'atini tuzish va ilmiy- uslubiy qo'llanma yaratish.

Bitiruv malakaviy ish oldiga qo'yilgan vazifalar bo'yicha quyidagi ishlar qilindi:

1. Bahuvrihi leksikologik vositasi borasida ilmiy- amaliy ma'lumot yig'ish, o'zbek va bu boradagi chet (Yevropa) tilshunoslari fikrlarini o'rganish;
2. Milliy tilimizda – o'zbek tili izohli lug'atida qayd qilingan bahuvrihilarni o'rganish;
3. Milliy tilimizdagi qo'shma so'zlar va so'z birikmalarini farqlab o'rganish, ular haqidagi fikr- mulohazalarga ijodiy-tanqidiy yondashish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: ushbu bitiruv malakaviy ishda induktiv, statistik va tahlil metodlaridan foydalanildi. O'zbek tili izohli lug'atlarining ikki jildlik (1980) va besh jildlik (2006) nashrlaridagi bahuvrihilar

va ular qatnashgan misollar to'plab, ular morfologik va semantik jihatdan tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi deb mazkur ishda o'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning o'rganilishini yanada konkretlashtirib, muayyan guruhlariga ajratib, tadqiqot jarayonida nisbatan yangi atamalar, aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar atamasini va bahuvrihi terminini birinchilardan bo'lib qo'llash va ularni tasniflashni aytish mumkin. Zero bu atama va terminlar chet tillari fakultetlari talabalariga o'zlari o'rganayotgan tillar(nemis, ingliz, fransuz, rus) orqali ma'lum bo'lsada, o'zbek tili ixtisosligi talabalari uchun nisbatan notanish edi. Bitiruv malakaviy ishi va chop qilingan ilmiy-uslubiy risolada yuqorida zikr qilingan leksikologik vosita- bahuvrihi haqida yetarli va yangi ma'lumotlar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi: Ushbu bitiruv malakaviy ishining umumiy tarkibi kirish, asosiy qism ikki bob, olti fasl, boblar bo'yicha kirish va xulosalar, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topdi.

BIRINCHI BOB: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO‘SHMA SO‘ZLAR VA ULARNING O‘RGANILISHI

Qo‘shma so‘zlar va ularning o‘rganilishi tarixi mavzusi bo‘yicha biz tanishgan adabiyotlardan ma‘lum bo‘ldiki, qo‘shma so‘zlar o‘zbek va ingliz tillarida tilshunoslar tomonidan keng o‘rganilgan. O‘z o‘rnida aytish joizki, qo‘shma so‘zlar ikkala tilda ham keng o‘rganilgan, ayniqsa ingliz tili mutaxassislari qo‘shma so‘zlarni klassifikatsiyasi va differentsatsiyasi, ya‘ni ularni guruhlarga bo‘linish imkonlari va o‘zaro farqli tomonlarini ajratib o‘rganilishiga jiddiy e‘tibor qaratishgan. Bu borada nemis va rus tilshunoslarining ahamiyatga loyiq ishlarini ham ta‘kidlab o‘tish lozim. Endi qo‘shma so‘zlarning o‘zbek tilida o‘rganilishiga kelsak, qo‘shma so‘zlar haqida bildirilgan fikr- mulohazalarning ayrimlari e‘tirozli, hatto qusurlar ham bor. Bu kamchiliklar ayniqsa biz bitiruv malakaviy ishimizda o‘rganayotgan aniqlovchili(attributiv) qo‘shma so‘zlar bilan yaqindan bog‘liq. Nainki, haligacha o‘zbek tilshunosligida ayrim so‘z birikmalari bilan qo‘shma so‘zlarning farqli tomonlari yaqqol ochib berilmagan. Ayniqsa, ularning imlosida(qo‘shib va ajratib yozishda) , morfologiyasida(qurilishida va semantikasida(ma‘no-mazmunlarida) farq borligi va ularni farqlanib o‘rganilishi lozimligi ko‘rsatilmagan. Chunonchi o‘zbek tili izohli lug‘atlarining ikki jildli va besh jildli nashrlarida, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov; I qism, Toshkent “ O‘qituvchi”,1989; adabiyotlarida ham ayrim til birliklari (so‘zboshi, og‘iroyoq, cho‘rtkesar va boshqalar) ning qaysi orfografik to‘g‘ri yozilgan va qaysining ma‘nosi qanday tushunilishi kerakligi farqlab berilmagan. Shu ma‘noda bitiruv malakaviy ishimizning bob va fasllarida ayrim shaxsiy fikr mulohazalarni bildiramiz.

1.1. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning o‘rganilishi

Ma‘lumki har qanday milliy tilning lug‘at tizimining boyishida so‘z yasash asosiy omillardan biridir. Bunda asosan til tarkibida azaldan mavjud so‘zlar

asosida yangi soʻzlar yasalishi tushuniladi. Shu maʼnoda quyida oʻzbek tilida soʻz yasash usullarini qisqacha bayon qilib oʻtamiz.(22;201)

Soʻz yasalishi qanday usul bilan boʻlsa ham, yangi soʻz hosil qilish ekanini bilamiz. Oʻzbek tilida soʻz yasalishining bir necha usuli bor:

- 1) semantik usul;
- 2) fonetik usul;
- 3) sintak-leksik usul;
- 4) affiksatsiya usuli;
- 5) kompozitsiya usuli.

Semantik usul bilan soʻz yasalishida tilda bor boʻlgan soʻz (soʻz formasi)ning maʼnosi oʻzgarishi natijasida yangi soʻz hosil boʻladi: kun (sutkaning yorugʻ qismi) – *kun* (quyosh, planeta), *boshda* (oʻrni kelishigidagi otdan yuzaga kelgan ravish), *kechasi* (egallik formasidagi otdan yuzaga kelgan ravish) va b.

Oʻzbek tilida fonetik oʻzgarish (tovush oʻzgarishi) natijasida hosil boʻlgan soʻzlar ham anchagina: *koʻr* – *koʻz*, *boʻr* – *boʻz* kabi. Bunday yoʻl bilan soʻz hosil boʻlishi **fonetik usul** bilan soʻz yasalishi deyiladi.

Sintaktik-leksik usul bilan soʻz yasalishi deganda soʻz birikmasining soʻzga aylanishi tushuniladi. Vaqtlar oʻtishi bilan maʼlum tipdagi soʻz birikmalari bir soʻzga aylanishi mumkin. Bunda soʻz birikmasi bir maʼno – leksik maʼno ifodalaydigan boʻlib yoʻqoladi. Natijada aslida soʻz birikmasi boʻlgan birlik qoʻshma soʻzga aylanadi. Masalan, *tokqaychi*, *qashqargul*, *mingboshi*, *joʻxoripoya*, *yengiltabiat*, *kaltafahm* kabi qoʻshma soʻzlar huddi shunday yoʻl bilan hosil boʻlgan.

Soʻzga affiks qoʻshish bilan yangi soʻz hosil qilish **affiksatsiya usuli** bilan soʻz yasalishi deyiladi: *ishchi*, *betonchi*, *sportchi*, *paxtakor*, *ochiq*, *yopiq*, *ishla*, *egovla*, *oʻyla* kabi.

Kompozitsiya yoʻli bilan soʻz yasash birdan ortiq yasovchi asosni maʼno va mazmun jihatdan biriktirib yangi leksik birlik – qoʻshma soʻz hosil qilishdir. Qoʻshma soʻzning sodda soʻzdan farqi shundaki, sodda soʻzda mustaqil maʼnoli

qism bitta, qo'shma so'zda esa bittadan ortiq bo'ladi. So'z yasashning bu turi o'zbek tilidagi eng faol usullardan biri sanaladi. Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no- bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish- grammatik tushunchaning ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak u bir so'zdir.

Qo'shma so'zlar tarixan so'z birikmalaridan o'sib chiqqan. Til taraqqiyoti jarayonida so'z birikmasi qismlarining ma'no va grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi, uning qismlari orasidagi sintaktik munosabatning yo'qolishi hamda ularning bir ma'no markaziga birlashishi natijasida qo'shma so'zga aylanadi. Bu vaqtda birikmaning har ikkala qismi ham o'zining alohida so'zlik xususiyatini yo'qotadi, har ikkalasi birgalikda yangi tushunchani anglatadi. Masalan , *osh* va *qozon* so'zlarining qo'shib ketishi natijasida shu so'zlarning yakka holatda anglatgan ma'nolaridan farq qilgan yangi ma'noli so'z – *oshqozon* hosil bo'ladi. Demak so'z birikmasi qo'shma so'zga aylanganda, birikma tarkibidagi so'zlarning aniqlovchilik aloqasi yo'qoladi, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelmaydi, balki har ikki qism birgalikda bir so'z holatiga keladi , bitta tushunchani anglatadi: *tomorqa, gulg'uncha, otto'rva, oqqush, muzyorar , Oltingo'l* kabi.(13;63)

Qo'shma so'z bilan so'z birikmasining shaklan o'xshash tomonlari bor, ammo ular orasida ham farq bor. Ular quyidagilar:

- a) qo'shma so'zning qismlari morfema, so'z birikmasining qismlari esa so'z bo'ladi;
- b) qo'shma so'zning qismlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi, so'z birikmasining qismlari alohida-alohida leksik ma'no ifodalaydi;
- c) qo'shma so'zning qismlari orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi, so'z birikmasining qismlari orasida sintaktik aloqa bo'ladi *tuyaqush, oybolta, xushfe'l qo'ziqorin* qo'shma so'z, *qush qanoti, oy yorug'i, asalari uyasi ,qora portfelli(yigit)* so'z birikmasidir;
- d) qo'shma so'z qismlari o'z mustaqilligini qisman yoki to'laligicha yo'qotadi, so'z birikmasining qismlari esa o'z mustaqilligini saqlaydi;

e) qo'shma so'z qismlari yaxlit bir savolga javob bo'ladi, so'z birikmasi qismlari esa alohida savolga javob bo'ladi va bir gap bo'lg'i vazifasida keladi.

Qo'shma so'zning ma'nosi bir holatda uning qismlari ma'nosi bilan bog'langan bo'ladi, shu ma'nolardan rivojlanib chiqadi: *asalari, otto'rva, tokqaychi, anjirshaftoli, oqqush* kabi.

Kompositsiya usuli bilan qo'shma so'zlar yasalişini ko'rdik. Qo'shma so'z birdan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topgan bir so'zdir. U shu xususiyati bilan sodda so'z va so'z birikmasidan farqlanadi.

Qo'shma so'zning sodda so'zdan farqi shundaki, sodda so'zda mustaqil ma'noli morfema bitta, qo'shma so'zda esa birdan ortiq bo'ladi: *terimchi, ko'kalamzorlashtir, eslatma, tortinchoq*- sodda so'z; *erksevar, belbog', tomorqa, boshpana, asalari*- qo'shma so'z.

Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topgan qo'shma so'zning biror komponenti (morfemasi) hozirgi o'zbek tilida mustaqil ma'nosini yo'qotgan bo'lsa, bu qo'shma so'z ham qo'shma so'zlik xususiyatini yo'qotadi,

sodda so'zga aylanadi. Bu hodisani *kechqurun* so'zidan ko'rish mumkin. Aslida qo'shma so'z bo'lgan *kechqurun* hozirgi til nuqtai nazaridan morfemalarga bo'linmaydi (sodda so'z hisoblanadi) .

Boshqa tillardan sodda so'zlar qatori qo'shma so'zlar ham (*zararkunanda, odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr, aeroport* kabi) o'zlashtiriladi. Lekin bunday so'zlar hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan ham birdan ortiq mustaqil morfemali deb qaralsa, qo'shma so'z, aks holda sodda so'z hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda , yuqorida keltirilgan so'zlar sodda so'zlardir.

Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi: *tuyaqush, oybolta, qo'ziqorin, xushfe'l, olib kelmoq* kabi. So'z birikmasini hosil qiluvchi

komponentlar (so'zlar) leksik mustaqilligini saqlaydi va ular o'rtasida sintaktik aloqa ham bo'ladi: qora portfelli (yigit), atlas ko'ylakli (qiz), o'n besh qavatli(bino) kabi.

Qo'shma so'z tarkibida hozirgi tilda mustaqil ma'no ifodalaydigan birdan ortiq morfemaning bo'lishi shart. Mustaqil ma'noli so'z bilan yordamchi so'zning birikishidan qoshma so'z hosil bo'lmaydi. Shunga ko'ra yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topuvchi *o'qib bermoq, yoza boshlamoq, uxlab qolmoq* kabi birikuvlar qo'shma so'z(qo'shma fe'l) bo'la olmaydi. Chunki bularda birinchi fe'l o'z ma'nosini saqlagan holda, keyingisi unga qo'shimcha ma'no beradi. Demak, bunda birdan ortiq fe'lning o'zaro birikishidan yangi fe'l (yangi so'z) hosil bo'lmaydi.

O'zbek tilida , ba'zi so'zlar affiks funksiyasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan bo'lsa ham, hali affiksga aylanib ulgurmagan bo'ladi. Bular affiksoidlar deb ham yuritiladi: *qabulxona, choyxona, darsxona, ishxona, ruxsatnoma, talabnoma, tabriknoma*. Masalan , *bu uyda to'rt xona bor-* biz ishxonada uchrashdik. Ko'rinadiki, xona elementi o'rni bilan so'z bo'lib ham qo'llaniladi, affiks bo'lib ham. U bir o'rinda o'zak morfema boshqa o'rinda-ergash morfema vazifasida keladi: *molxona, muzxona* kabi.(22;205)

O'zbek tilida affiksoidlar (ular so'z-affikslar deb ham yuritiladi) kam uchraydi. Quyida biz so'z yasashda muammoli bo'lgan bir nechta affiksoidlarga izoh berib o'tamiz.

Ulardan biri **-xo'r**(tojikcha *xo'rdan* – “yemoq” fe'lidan) qo'shimchasi bo'lib,u o'zi qo'shilgan so'z anglatgan yegulik, ichimlik turlarini doim iste'mol qiluvchi yoki dam-badam iste'mol qilishni yaxshi ko'ruvchi shaxs oti yasaydi: *norin + xo'r, araq + xo'r, may + xo'r, choy + xo'r, qatiq + xo'r kabi. Nafaqaxo'r, poraxo'r, g'amxo'r, qonxo'r, tekinxo'r, ziyofatxo'r*, so'zlari ham **-xo'r** affiksining xuddi shu ma'nosi asosida yasalgan: **Aziz mehmonlar! Kaklikxo'rlar- kaklikdan, bedanaxo'rlar – bedanadan, qirg'ovulxo'rlar- qirg'ovuldan tanovul qilinglar.**(Sh. Sa'dulla .)

Keyingisi esa **–parast** (tojikcha *parastidan* itoat qilmoq, ta’zim qilmoq fe’lidan) affiksidir. U oraqli bir asosdan anglashilgan hodisaga e’tiqod qiluvchi, shunga berilgan shaxs oti yasaydi: *but + parast, shaxsiyat + parast, maishat + parast* kabi.

Navbatdagi izohtalab bo’lgan affiks esa ham qo’shimcha ham so’z sifatida qo’llanilmoqda. U – **furush** (tojikcha *furo’xtan-* “sotmoq” fe’lidan) affiksi bo’lib, asos anglatgan narsa predmetni sotish bilan shug’ullanuvchi shaxs oti yasaydi: *chit + furush, meva + furush, paxta + furush, choy+ furush* kabi. Lekin ba’zi o’rinlarda biz “furush” affiksini yakka o’zini so’z sifatida qo’llaymiz. Asosan og’zaki nutqimizda ko’p uchrashi mumkin bo’lgan misol hisoblanadi. **Kuni kecha dehqon bozorida bir gala furushlar yo’limni to’sib, olma solingan idishni ham qo’limdan yulib olishdi.** Bu misolda furushlar “sotuvchilar” ma’nosini beradi va shaxsni anglatadi.

Va izohtalablarning hozircha oxirgisi hisoblangan **“ham-” affiksoid**(ya’ni tilda ham qo’shimcha ham so’z ma’nosida qo’llaniladi) asosdan anglashilgan ish, narsaga birga aloqador ma’nosidagi shaxs oti yasaydi: *hamshahar, hamsuhbat, hamkurs, hamkasb.*(12;85)

Mazkur faslni yakunlashdan oldin o’zbek tilida so’z yasalishi borasida internet ma’lumotlarini keltirishni ma’qul topdik.

O’zbek tili lug’at tarkibidagi (shuningdek nutqimizda qo’llanadigan) so’zlar dastlab tub va yasama so’zlarga bo’linadi. Masalan: *paxta-tub* so’z, *paxtakor* esa yasama so’z; *bug’doy*, *rang* so’zlari alohida-alohida olinganda tub so’zlar, ammo *bug’doy rang* (rangning bir turi)-yasama so’z; *tog’-tub* so’z, ammo *tog’ma-tog’* yasama so’z; *besht*, *o’n tub* so’zlar, *o’n besh* yasama so’z; *qo’l*, so’zlari alohida-alohida tub so’zlar sanalsa, *qo’l qo’ydi* yaxlit holda yasama so’z hisoblanadi. So’z yasovchi affiksi bo’lmagan so’zlar tub so’z deyiladi.

Ma’lum bir so’z negizida ma’no jihatidan (ba’zan ham ma’no, ham grammatik jihatdan) undan farqlaydigan yangi so’z (yangi leksik birlik) hosil qilish so’z yasash deyiladi, qiyoslang: *ish- ishchan, jon-jonlandi, oq-oqla, g’alla-g’allazor.*

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning asosan ikki usuli ajratiladi:

- 1) affiksatsiya (yoki morfologik) usuli;
- 2) kompozitsiya (yoki sintaktik) usuli;

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksatsiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: mevali daraxt, serhosil yer kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so'zlar bo'lib, ular meva o'zagiga-li, hosil o'zagiga ser-affikslarini qo'shish orqali yasalgan so'zlardir.

Ikki va undan ortiq so'z formalarining (ko'pincha mustaqil so'zlarning qo'shib (yoki tizilib) bir so'zga aylanishi kompozitsiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: belbog', oshqazon, mehmondo'st, so'z boshi, bir yuz o'n, ahd qilmoq, bir oz va boshqalar.

Juftlik modeli (qolipi) da qo'llangan ayrim so'zlar ham yasama so'z sanaladi, masalan: yildan-yilga, zo'r-bazo'r, uyma-uy kabi.

O'zbek tilida so'zlar tuzilish jihatdan ham turlarga ajratiladi, chunonchi: sodda so'z, qo'shma so'z, juft so'z (takroriy so'z), murakkab so'z. Sodda so'z bitta o'zak morfemasi bo'lgan so'zdir. Masalan: bola, bolalik, bolalar, bolalarimiz kabi.

Kungaboqar, gultojxo'roz, Oqqo'rg'on, sohibjamol kabi so'zlar qo'shma so'z deyiladi. Bu kabi so'zlar ikki va undan ortiq so'z yoki so'z formalaridan tashkil topib, bir urg'uga birlashadi va bir tushunchani ifodalaydi.

Tarkibi alohida-alohida yoziladigan leksik va grammatik ma'nolari ayrim holda ham, bir butunlik hosil qilgan holda ham izohlanishi mumkin bo'lgan so'zlar murakkab so'z deyiladi. Masalan: to'q sariq, och jigar rang, yigirma besh ming, borib keldi, sotib yubordi kabi.

Nutqimizda qo'llanadigan opa-singil, non-pon, tog'-tosh, onda-sonda, tez-tez, xirmon-xirmon, chala-chulpa, o'n-o'n besh, suv-puv kabi so'zlar juft so'z deb yuritiladi. « h va x harfli so'zlar qo'shimchalar »

So'zlarning tuzilishi jihatdan turlari

So'zlar tuzilishi jihatdan besh xil bo'ladi:

1. Sodda so'zlar;

2. Qo'shma so'zlar;
3. Murakkab so'zlar;
4. Juft so'zlar;
5. Takroriy so'zlar.

Bittagina o'zak morfemasi bo'lgan so'z sodda so'z deyiladi. Masalan: ish, ishga, ishchi, bolalar, o'qigan, kel kabi. Sodda so'z tub yoki yasama bo'ladi. So'z yasovchi qo'shimcha bo'lmagan so'zlar tub so'z deyiladi. Masalan: paxtalar, daraxt, uy, odat, ariq va boshqalar. Negizga yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan yasalgan sodda so'zlar yasama so'zlar deyiladi. Masalan: paxtazor, serdaraxt, sinfdosh kabi. Grammatik tobe'lik munosabatlari asosida birikkan, yoki, bu munosabat aniq anglashilmaydigan ikki va undan ortiq so'z yoki so'z shakllaridan tashkil topib, bir urg'uga birlashadigan, bir tushunchani ifodalaydigan so'z qo'shma so'z deyiladi. Masalan: belbog', yer yong'oq, yertandir, muzyorar, kungaboqar, ko'zoynak, oshqovoq, so'z boshi, mehmondo'st, sohibjamol, o'zbilarmon.

Leksik va grammatik ma'nolari ayrim holda ham, butunligicha ham izohlanishi mumkin bo'lgan, ayrim mustaqil tushunchalarga osonlik bilan ajrala oluvchi, bitta murakkab tushunchani ifodalovchi va gapda bitta gap bo'lagini vazifasini bajaradigan so'z shakllari birikmasi murakkab so'z deyiladi. Masalan: jigarrang, to'q qizil, bir yuz oltmish besh, qo'l qo'y, borib kel, sotib ol kabi. Murakkab so'zlar hodisalarni tasvirlash yo'li bilan anglatadi. Murakkab so'zlar qo'shma so'zlardan tarkibidagi har bir so'z shaklining semantik, grammatik, hatto fonetik jihatdan mustaqillikka egaligi bilan farq qiladi. Shuning uchun, bu shakllarning ma'nolarini ayrim holda ham tasavvur qilish, ularning o'rinlarini ba'zan almashtirish, oraga ba'zan boshqa so'z yoki qo'shimcha kiritish mumkin. Shuningdek, qismlarning har biri ko'pincha mustaqil urg'uli bo'ladi. Masalan: sotib ol – ol sotib, borib keldi – borib ham keldi, bir yuz sakson – bir yuz-u sakson kabi.

Ikki soʻzning grammatik munosabatlar asosida yonma-yon keltirish juft soʻz deyiladi. Masalan: togʻ-tosh, ota-ona, bola-chaqa, yer-suv kabi. Juft soʻzning har ikki qismi ham yakka holda mustaqil maʼno bildirishi mumkin. Yoki ikkinchi qismi yakka qoʻllanmaydigan soʻz boʻlishi mumkin. Yoki har ikki qismi ham maʼno ifodalamasligi mumkin. Masalan: qozon-tovoq, arpa-bugʻdoy, kiyim-kechak, yosh-yalang, apil-tapil, shosha-pisha, qand-qurs.

Bir soʻzning takrorlanishidan, qoʻshaloq kelishidan hosil boʻladigan soʻzlar takroriy soʻzlar deyiladi. Masalan: baland-baland, qator-qator, non-pon, choy-poy. Takroriy soʻzlar koʻplik, davomiylik, takror kabi maʼnolarni bildiradi. Masalan: etak-etak paxta, ayta-ayta charchadim. Takroriy soʻzlar ayni bir soʻzning takror holda qoʻllanishi natijasida grammatik maʼno ifodalaydi. Maʼnoni kuchaytirish uchun ketma-ket keltirilgan soʻzlar takroriy soʻzlar hisoblanmaydi. Masalan: kiyimini qara, kiyimini!

Soʻz birikmasining soʻz, ibora, sintagma va gapdan farqi.

Soʻz narsa, belgi, shaxs, ish-harakatni umuman ifodalashga xizmat qiladi: Kitob deganda umuman kitoblarni, bordideganda umuman borilganlikni tushunamiz.

Soʻz birikmasi ham narsa, belgi, ish-harakatni ifodalaydi va bu jihatdan soʻzga oʻxshab ketadi, ammo soʻz birikmasi narsa, belgi, ish-harakatni boshqa narsa, belgi, ish-harakatlardan ajratib, aniqroq qilib ifodalaydi: oʻquvchi – aʼlochi oʻquvchi, yozish – tez yozish. Qoʻshma soʻz va soʻz birikmasi oʻzaro quyidagicha farqlanadi: qoʻshma soʻz bir soʻroqqa javob boʻladi, soʻz birikmasi tarkibidagi har bir soʻz alohida-alohida soʻroqlarga javob boʻladi, soʻz birikmasidagi har bir soʻz oʻz urgʻusiga ega boʻlsa-da, qoʻshma soʻz esa yaxlit bitta urgʻuga ega boʻladi: sotib olmoq(nima qilmoq?) – qoʻshma soʻz; joʻshib kuylamoq (qanday kuylamoq? joʻshib nima qilmoq?). Soʻz birikmalari qoʻshma soʻzlarning birinchi bosqichidir: koʻzning oynasi – koʻzoynak, sarv qomatli – sarvqomat, dunyoga qarash – dunyoqarash va h.

Ibora (turg'un birikma) ma'no jihatidan bir so'zga teng, ajralmas holatga kelib qolgan birlikdir. Uning tarkibidagi so'zlarni hokim yoki tobe birliklarga ajratish mumkin emas. Qiyoslang: tosh yo'l (so'z birikmasi) – oq yo'l (ibora, ya'ni omon-eson borib kelishni tilash). So'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni almashtirish mumkin, iboradagi so'zlarni esa almashtirish mumkin emas: maktabga bormoq – teatrga bormoq (so'z birikmalari); ko'zi to'rt bo'lib kutmoq (ko'zi besh bo'lib kutmoq deb almashtirib bo'lmaydi). Ba'zan gap tarkibida so'z birikmasi va iboralar shakliiy jihatdan teng kelib qolishi mumkin, bunda so'z birikmasi o'z ma'nosida, ibora esa ko'chma ma'noda keladi: oyoq tiramoq: U devorga oyog'ini tirab (so'z birikmasi) arqonni tortdi – Mening gapimga ko'nmay, oyog'ini tirab (ibora) turib oldi.

Sintagma fonetik hodisa bo'lib, unda ikki so'z o'zaro birikkanda mazmun yetakchi hisoblanmaydi, bitta mustaqil yoki bitta yordamchi so'z ham sintagmani tashkil etishi mumkin yoxud bir so'zning o'zi ham sintagmani tashkil etishi mumkin. So'z birikmasi esa eng kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi: – Bu kitoblar kim uchun olindi? – Men uchun emas, ukam uchun (ikkinchi gapda ikkita sintagma mavjud bo'lib, ular bitta mustaqil, bitta yordamchi so'zlardan tashkil topgan: men uchun, ukam uchun).

Gap fikr, tasdiq yoki inkor hukmni bildirib, tugallangan ohang bilan aytiladi: Ko'cha katta. So'z birikmasi esa atash ohangi bilan aytiladi. Masalan, katta ko'cha.

1.2. Ingliz tilida qo'shma so'zlarning o'rganilishi

Ingliz tilida ham ikki yoki undan ortiq so'z yoki komponentlardan iborat bo'lgan va, albatta, qo'shib yoziladigan til birliklariga qo'shma so'z deb aytiladi. Ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan qo'shma so'z turlari qo'shma otlar(*cheeseburger*), qo'shma sifatlar(*red-hot temper*), va qo'shma fe'llar(*waterproof the deck*). Qo'shma so'zlar yozilishi bo'yicha qoidalar aniq emas. Ba'zi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi. Masalan, *blackboard*, *classmate*, *sunflower* va boshqalar. Yana boshqalari esa chiziqcha bilan yoziladi jumladan, *brother –in-law*, *air-conditioned*, *do-it-yourself*, *life-threatening* va boshqalar.

Uchinchi bir turdagi qo'shma so'zlar esa ajratib yoziladi(*soccer stadium, parking lot, hot dog, air conditioner, handwritten notebook* va boshqalar). (19;48)

Quyida ingliz tilidagi qo'shma so'zlar qatnashgan misollarni keltiramiz:

"As the car pulled into the *parking lot*, Kenny Dennard whipped a *snowball* right at the *windshield*."

On Sunday *afternoons* in the summer, my *grandfather* and I enjoyed eating *hot dogs* at the *ballpark*.

"While we were waiting for our food, I played with my *chopsticks*. They make excellent *drumsticks*. I also told Dad all about this big *baseball* game we were going to play after school the next day."

"He hid in a cave until the ship had left, only to find that his *shipmates* had taken pity on him, and left him a barrel of biscuits and a fire, which he kept alight for months. A year later a ship *southbound* stopped by."

Ko'rib turganingizdek , ajratib yozilgan so'zlar ingliz tilidagi qo'shma so'zlar hisoblanadi. (5)

Ingliz tilida qo'shma so'zlarning morfologik xususiyatlari mavjud. Odatda qo'shma so'zda asosiy ma'no anglatuvchi qism bo'lishi zarur. Bunday asosiy ma'no beruvchi qismni hokim so'z deb ham ataymiz va u ko'pincha ingliz tilida o'ng tomonda, qo'shma so'zning ikkinchi qismida keladi. Masalan, bell**BOY**, spin**DRY**, in**TO**,va boshqalar. (Ammo bu ta'rif hamma tillar uchun ham xos emas.)

Agar qo'shma so'zlarni yozishda keyingi satrga o'tib yozishga to'g'ri kelsa, uning ma'no anglatadigan qisminigina keyingi satrga o'tkazamiz. Misol uchun, **snow-mobile** lekin **snowmo-bile** emas.

Qo'shma so'zlarning yana shunday turi borki ular **metaforik xarakterda** bo'ladi.

Misol uchun, "**couchpotato**" so'zini odamga nisbatan 'televizor ko'rishga mukkasidan ketgan' ma'nosida qo'llash mumkin, chunki kartoshka poyasi qanchalik uzoq yerda ko'milib tursa, shunchalik chuqur ildiz tashlaydi, demak

televizor ko‘rishga mukkasidan ketgan odam kartoshkaga o‘xshatilayapti. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosini izohli lug‘atda ‘*sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarmay, nuqul vaqtini televizor tomosha qilib o‘tkazadigan odam*’ deb berilgan.

Keyingi turi esa **murakkab qo‘shma** so‘zlardir. Masalan , *law degree* “qonun qarori” qo‘shma so‘z , unga *requirement* so‘zini ham qo‘shish orqali murakkab qo‘shma so‘z ya’ni “qonun qarori talabi” hosil bo‘ladi. Agarda uni yanada kengaytirmoqchi bo‘lsak masalan, *law degree requirement changes* “qonun qarori talablaridagi o‘zgarishlar” *changes* so‘zini qo‘shamiz va yanada uzunroq qo‘shma murakkab so‘z hosil bo‘ladi.

Ingliz tili orfografiyasida qo‘shma so‘zlarning yuqorida aytib o‘tilganidek turli xil ko‘rinishlari mavjud shu jumladan, *qo‘shib yozish, ajratib yozish* va *chiziqcha bilan yozish*.

Fonetik jihatdan talaffuz qoidalariga keladigan bo‘lsak, ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlar, ayniqsa, sifat+ot ko‘rinishidagi qo‘shma so‘zlarda urg‘u birinchi komponentga tushadi. Ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning ikkinchi bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, shaxs-son qo‘shimchalari birinchi elementga qo‘shilmaydi, balki so‘zning butun bir o‘ziga qo‘shiladi(*brother-in-laws*), ammo mustasno holatlar uchraydi masalan, *passers-by, editors-in-chief* va boshqalar.

Ingliz tilida qo‘shma so‘zlarning ko‘pligini yasashda ularning oxirgi elementiga –s(lar) qo‘shimchasi qo‘shiladi, lekin biz yuqorida aytgan misollar bundan mustasno. Bundan tashqari –ful sifat yasovchi qo‘shimchasi bilan tugagan so‘zlardan bir nechtasining oxirgi elementiga ko‘plik qo‘shimchasi -s qo‘shiladi. (*mouthfuls, spoonfuls*) lekin kamdan kam holatda ularning birinchi elementiga bu qo‘shimcha qo‘shiladi(*mouthsful, spoonsful*).

Shu o‘rinda ko‘plik qo‘shimchasi yana “**in-law**” komponenti bilan tugovchi so‘zlarning birinchi elementiga norasmiy uslubda esa oxirgi elementiga qo‘shilishi mumkin. Masalan , *sister-in-law : sisters-in-law, sister-in-laws* kabi.(int;2)

Qo‘shma so‘zlardagi komponentlarning o‘zaro ma’no munosabatlariga ko‘ra ingliz tilida ular quyidagi 4 guruhga bo‘linadi:(3)

1. Endosentrik
2. Ekzosentrik(shuningdek “bahuvrihi”)
3. Kopulativ (shuningdek “dvanda”)
4. Appozitiv

Endosentrik qo'shma so'zlar aniqlovchi aniqlanmishga bo'linadi ya'ni birinchi so'z ikkinchisini (ikkinchi komponentni) ikkinchi komponent esa birinchisini aniqlab kelishi mumkin. Misol uchun, *housekeeper*, *cargo*, *caretaker* va boshqalar.

Yuqoridagi berilgan misollarda *housekeeper* so'zida asosiy ma'no “keeper” negizidan anglashiladi, chunki u “ asrovchi, saqlovchi” degan ma'noni bersa, ‘house’ so'zi qo'shib uning qanday turdagi saqlovchi ekanini bildirgan ya'ni aniqlab kelgan “uy qo'riqchisi”. “*Cargo*” so'zi ham qo'shma so'zning endosentrik turiga mansub bo'lib, unda ikkinchi so'z birinchi so'zni aniqlab kelgan. Negaki, *cargo* so'zi ‘yuk’ degan ma'noni beradi va so'zma so'z tarjima qiladigan bo'lsak ‘mashinada boruvchi’ degan ma'noni bildiradi.

Ingliz tilida qo'shma so'zlarning ikkinchi turi bu **ekzosentrik** qo'shma so'zlardir. Xo'sh , ular qanday tuzilishdagi qo'shma so'z hisoblanar ekan? Bunday qo'shma so'zlar sanskrit tilida “bahuvrihi” atamasi bilan qo'llaniladi va ma'no jihatdan “ ko'p guruch” deganidir. Bu yerda guruchning o'zi emas, balki shu guruchga egalik qiluvchi odam tushuniladi, boshqa so'z bilan aytganda bu yerda ma'no ko'chishi ro'y berib, u “ko'p guruchli odam” ma'nosini bildiradi. Ingliz tilida ham tuzilish va ma'no jihatdan qo'shma so'zlar shunday ko'rinishda bo'ladi. Ta'rif beradigan bo'lsak, bu turdagi qo'shma so'zlar ikkita so'z negizdan tashkil topadi lekin bu negizlar ikkalasi birgalikda boshqa bir semantik birlikni anglatadi. Ulardan hech biri , ko'pchilik hollarda, to'laligicha o'z ma'nosida kelmaydi va ulardan ma'no anglashila olmaydi. Misol tariqasida, **white-collar** ya'ni ‘oq yoqa’ ma'nosini bildiruvchi bu so'z oddiygina ‘ko'ylak yoqasini, narsa’ni bildirib turgani yo'q, aksincha ‘*oq yoqali odam*’(*yoqaning rangi ijtimoiy iqtisodiy mavqe uchun metonimiya*dir)ni anglatayapti. Bu misolda ma'no narsadan bevosita shaxsga

ko‘chgan. Bahuvruhining tabiati murakkab hisoblanib, uni hech qanday so‘z ochib bera olmaydi. Boshqa yana bir misol keltirsak, “**barefoot**”- oyoqyalang. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda birinchi ma’no *‘oyog‘iga hech narsa kiyib olmagan odam’* tushunilsa, keyingi ma’no esa ko‘chma “ *kambag‘al odamni*” ifodalab kelgan. Biz ham o‘zbek tilida bu so‘z haqida o‘ziga yarasha ma’lumotga egamiz va nutqimizda ham qo‘llaymiz.

Ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning uchinchi turi bu **kopulativ** qo‘shma so‘zlar hisoblanadi. Bunday qo‘shma so‘zlarda har bir komponent o‘z ma’nosini saqlagan holda uchinchi bir narsa hodisani nomlaydi. Masalan , “**bittersweet**”- so‘zma so‘z tarjimasi “*nordon shirin*” degan ma’noni bildirsa, asosiy atab, nomlab kelgan ma’nosi esa “ *salat, achchiq-chuchuk*” so‘zlarini bildiradi. Yoki “**fourteen**” so‘zi ‘four’-‘to‘rt’, ‘teen’-‘o‘n’ ikkita o‘z ma’nosidagi so‘zlar qo‘shilmasidan biz uchinchi bir so‘z, ‘o‘n to‘rt’ sonini anglaymiz. Yana bir boshqa misol keltiradigan bo‘lsak, “**sleepwalk**”-‘uxlamoq yurmoq’ bu degani uchinchi bir ma’no “*yurganida ham hamisha uyqusirab yuradigan odam*”ni anglatadi.

Qo‘shma so‘zlarning navbatdagi va ,ayni paytda, oxirgi turi bu **appozitiv** qo‘shma so‘zlardir. U shunday komponentlardan iboratki, ular o‘z zid ma’nolarini saqlagan holda uchinchi bir narsa hodisani nomlaydi. Masalan , “**actor-director**”. Bilamizki ,direktor sahnada yoki kinoga boshchilik qiladigan shaxs hisoblanadi, aktyor esa u olayotgan filmda shunchaki rol ijro etadigan shaxsdir. Mantiqan ular bir birlariga ma’no jihatdan va bajaradigan vazifalari jihatidan qarama qarshi hisoblanadilar, lekin yuqoridagi qo‘shma so‘z misolida biz bitta filmni suratga olish jarayonida ham direktor ham aktyor vazifasini bajarayotgan shaxsni tushunamiz. Yoki boshqa bir misol, “**maidservant**”ni oladigan bo‘lsak ‘maid’ oqsoch qiz degan ma’noni bildirsa , ‘servant’ asosan xizmatchi yigitni bildiradi, lekin ularning bajaradigan vazifalari bir biriga yaqin va shuning uchun ham ular qo‘shilib bitta qo‘shma so‘z bo‘lib kelgan. Biz bunday misollarni ko‘p keltirishimiz mumkin. Rus tilida “игрок-трейнер” so‘zi esa ham treynerlik ham o‘yinchilik vazifasini bajaradigan shaxsni anglatadi va izohlaydi.

1.3. Ingliz va o‘zbek tillarida qo‘shma so‘zlarning yasashida o‘xshash va farqli tomonlar

Ma’lumki qo‘shma so‘zlar har tilda turli xil o‘rganilib kelinadi. Bu fikrni uzoqqa ketib o‘tirmasdan bizga yaqindan tanish bo‘lgan o‘zbek, rus, nemis va ingliz tillarida ko‘rish mumkin. o‘zbek tilida ham ingliz tilida ham qo‘shma so‘zlarning o‘ziga xos o‘rganilishi bor va ularning o‘rtasida turli xil o‘xshashliklar va farqlar mavjud. Aytish kerakki, o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning turlari mavjud emas, lekin ingliz tilida ular 4ta turga bo‘linadi.

1. Endosentrik

2. Ekzosentrik (shuningdek “bahuvrihi”)

3. Kopulativ (shuningdek “dvanda”)

4. Appozitiv

Endosentrik qo‘shma so‘zlarga juda ham ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, *superman, fishnet, mainland, caveman, skyscraper, eyeglasses, stepson, stonewall, stockroom, bluebird, taskmaster, shoemaker, teaspoon, sunlit, snowbird, fishhook, shipskin, tigerskin, fishbowl, tablespoon, airman* va boshqalar. Yuqorida qayd etilgan misollarda birinchi component ikkinchisini va ikkinchi component esa birinchisini aniqlab kelgan. (4)

Ekzosentrik qo‘shma so‘zlar ingliz tilida kam uchrasa ham nutqda qo‘llaniladi. Bunday qo‘shma so‘zlardan anglashilayotgan narsa va hodisa so‘z ma’nosi bilan juz’iy bog‘liq bo‘lsada aynan shu so‘zlar anglatgan ma’nolarga uzviy aloqasi bo‘lmaydi. Bu ta’rif hech qanday e’tirozlarsiz ikkala o‘zbek va ingliz tillaridagi attributiv qo‘shma so‘zlar uchun umumiy deb olinishi mumkin, chunki ular orasidagi o‘xshashlikni anglash qiyin emas. Misol uchun, ingliz tilidagi **“egghead”** qo‘shma so‘zini olsak, u ‘tuxum shaklidagi bosh’ni emas, balki umuman boshqa ma’noni ya’ni *‘judayam zehni o‘tkir shaxs’*ni ifodalab kelmoqda. Yoki **“longlegs”** so‘ziga murojaat qiladigan bo‘lsak, u ‘uzun oyoqli odamni’ emas, balki *‘kriket o‘yinida to‘p oshiruvchining orqa tomonida turadigan o‘yinchi’* ma’nosini ochib bergan. Shu o‘rinda o‘zbek tiliga to‘xtaladigan bo‘lsak,

bunday misollarni ko‘p uchratishimiz mumkin. Fikrimning isboti sifatida “xumkalla” so‘ziga izoh bersak. Bu yerda kallasi xumga o‘xshagan odamni va albatta, asosan “miyasi yo‘q, kallavaram, qovoqbosh ya’ni esi pastroq odamni tushunamiz. Yoki bo‘lmasam “qovoqbosh” so‘ziga ta’rif bersak, lug‘at tarkibiga kiritilmagan bo‘lsa ham kundalik nutqimizda ko‘p qo‘llaymiz, qaysi ma’nodaki “boshining o‘rnida xuddi qovoq turgandek, miyasi ishlamaydigan, bo‘m bo‘sh kishi” sifatida.

O‘zbek tilida kompozitsiya usuli bilan qo‘shma otlar hosil qilinadi: *toshko‘mir, tuyaqush, karnaygul, oybolta, sadarayhon, ko‘kqarg‘a, qoraqurt, mingoyoq*, lar ham hosil bo‘ladi.

Ingliz tilida qo‘shma otlar asosan otli iboralardan tashkil topadi. Ular sifatlar va otlar tomonidan aniqlanib kelinadi. Masalan, ‘**science fiction**’ so‘ziga ‘**writer**’ so‘zini qo‘shsak, murakkab qo‘shma so‘z hosil bo‘ladi. Lekin shu yerda ikkala til o‘rtasida muammoli, izohtalab masala paydo bo‘ladi, chunki yuqoridagi misol ingliz tilida murakkab qo‘shma so‘z hisoblanadi, lekin unga o‘zbek tilida so‘z birikmasi sifatida qaraladi. Asosan o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar ikki yoki uchta komponentdan tashkil topgan bo‘ladi, lekin o‘zbek tilidan farqli o‘laroq ingliz tilida murakkab qo‘shma so‘z turi mavjud, ammo o‘zbek tilida bu masala hali ham tilshunoslarimizning va bizning chuqur izlanish va o‘rganishimizni kutayotgan katta ishlardan biridir.

Shu o‘rinda inglizlar qo‘shma otlari ham turlarga ajratganlar:

1. Muvozanatlashgan yoki qolipga tushgan qo‘shma otlar. Ular ikkita qisqa bo‘g‘inli otdan tashkil topib, tilda uzoq vaqtdan beri qo‘llanilishda bo‘lgan qo‘shma otlar hisoblanadi, *housewife, lawsuit, wallpaper, basketball* kabilar.

2. Chiziqcha bilan yoziladigan qo‘shma otlar. Bunda ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan qo‘shma otlar chiziqcha orqali ajratib yoziladi. Ular o‘z ichiga affikslarni, artikl, predlog, va bog‘lovchilarni ham olishi mumkin. Masalan, *house-build(er), single-mind(ed)(ness), rent-a-cop, mother-of-pearl* va b.

3. Ajratib yoziladigan qo'shma otlar. Ular odatdagidan uzunroq so'zlar hisoblanadi, jumladan distance learning, lawn tennis, player piano kabi. (23;96)

O'zbek tilida qo'shma so'zlarning so'z birikmasidan(aniqrog'i sifatlovchi birikmalardan) farqlab olish qo'shma otlarni so'z birikmasidan farqlab olishga nisbatan ancha qiyinroq. Predmet belgisi sodda, qo'shma sifatlardan tashqari, sifatlovchi birikmalar vositasida ham ifodalanadi. Bu hol qo'shma sifatlar bilan sifatlovchi birikmalarni farqlashda ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Sifatlar tuzilishiga ko'ra uch turga bo'linadi: *sodda, qo'shma va juft*.

Sodda sifatlar shaklan bir o'zakli yoki bir negizli yakka so'zlardan tashkil topadi. Bunda ular yakka o'zakdan iborat bo'ladi: a) oq, qora, yaxshi, yomon, zo'r, katta, keng b) biror affiks yordamida yasalgan yasama sifatdan iborat bo'ladi: bolali, ommaviy, uyatchang, suvsiz kabi.

Qo'shma sifatlar ikki yoki undan ortiq sifatlarning birikuvidan hosil bo'lgan sifatlar hisoblanadi. Qo'shma sifatlar bir bosh urg'u bilan aytilib, bir belgi-xususiyatni ifodalash uchun xizmat qiladi: och sariq, ko'p bolali, qalin qosh kabi.

Qo'shma sifatlar sostav jihatdan quyidagicha qismlardan iborat bo'ladi:

a) sifat + sifat *to'q ko'k, ola qashqa, erka- arzanda, ijtimoiy- siyosiy, madaniy-ma'rifiy* kabi ;

b) sifat+ ot: *ochiq ko'ngil, yalang oyoq(oyoq yalang), ochko'z, xushfe'l, sofdil, qora qosh* kabi;

c) sifat+ ot + sifat yasovchi affiks: *ko'k ko'zli, o'tkir zehnli, qizil bayroqli* kabi;

d) ot+ ot: *qo'y ko'z, sher yurak, tosh bag'ir, echki soqol, bodom qovoq* kabi;

e) ot+ ot+ sifat yasovchi affiks: *temir irodali, it fe'lli* kabi;

f) ot+ sifatdosh: *tinchliksevar, erksevar, ko'zilg'amas, ishyoqmas* kabi;

g) ravish+ fe'l: *ertapishar, kechpishar, tezoqar* kabi;

h) son+ot+sifat yasovchi affiks *to'rt bolali, ikki g'ildirakli, uch elementli* ;

i) ot + affiks+ bor (yo‘q) so‘zlari *bahosi yo‘q, tengi yo‘q, aqli bor (yigit)* va hokazolar. (16;105)

Juft sifatlar esa predmetning umumiy bir belgisini ifodalaydi, odadtda ikki soda sifatdan teng bog‘lanish yo‘li bilan yasaladi. Bunday sifatlar quyidagi yo‘llar bilan hosil qilinadi:

1. Bir xildagi ikki sifatning takrorlanishidan: yaxshi-yaxshi, baland-baland, katta- katta, past-past va hk;
2. Ma‘nodosh ikkita sinonimik sifatdan: qing‘ir-qiyshiq, pishiq-puxta kabilar.

Qo‘shma sifatlar bilan sifatlovchi birikmalarni bir-biridan farqlashda faqat ma‘noni – predmetlik belgisini bildirishidagina emas, balki formani- grammatik belgini ham asosga olish kerak.

Fe’llardan ham xuddi shu usul orqali qo‘shma fe’llar yasaladi. Qo‘shma fe’llar komponentlarining qaysi turkumga oidligiga ko‘ra ikki asosiy turga bo‘linadi:

1. ot+fe’l tipidagi (fe’l bo‘lmagan so‘z bilan fe’lning birikishidan hosil bo‘lgan) qo‘shma fe’llar;
2. fe’l+fe’l tipidagi(ikki fe’lning o‘zraro birikishidan hosil bo‘lgan) qo‘shma fe’llar: hurmat qilmoq, sotib olmoq kabi.

Mazkur qo‘shma fe’llar qatnashgan misollarga qarang: *Turg‘un uni begonaday **qarshi oldi.** (H.N) Chevaringizni uydan **chaqirib olishga** kuchimiz yetmaydi, o‘zingiz ruxsat oberasiz-da opoqingizdan.(H.N)*

Ot+fe’l tipidagi qo‘shma *fe’llarning* ko‘pgina qismini *qilmoq, aylamoq, etmoq* yoki bo‘lmoq fe’llarining birikishidan hosil bo‘lgan *bayon qilmoq, kashf etmoq, kasa l bo‘lmoq* tipidagi birikuvlar tashkil etadi.

Fe’l bo‘lmagan so‘zning qilmoq, *aylamoq, etmoq* fe’li bilan birikishidan har vaqt qo‘shma fe’l hosil bo‘lavermaydi. Bunday birikuvlarda *qilmoq, aylamoq, etmoq yoki bo‘lmoq* fe’llari bog‘lama vazifasida qo‘llanilishi mumkin. Ular bunday vazifada qo‘llanganda qo‘shma fe’l hosil qilmaydi. Qiyoslang :

o'qituvchi edi- o'qituvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi bo'ladi birikuvi qo'shma fe'l emas, chunki o'qiyuvchi va bo'l sozlarining birikishidan yangi so'z (qo'shma so'z) hosil bo'layotgani yo'q. *Tasdiq qildi, tasdiq bo'ldi* birikuvlari esa qo'shma fe'l hisoblanadi. Buni qil va bo'l fe'llarini –la va –lan affikslari bilan almashtirish mumkinligi aniq ko'rsatadi: *tasdiq qildi- tasdiqladi, tasdiq bo'ldi-tasdiqlandi.*

O'zbek tilida ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'luvchi qo'shma fe'llar u qadar ko'p emas. Ular ham o'z tarkibidagi komponentlari ma'nosidan farqli bo'lgan yangi ma'no ifodalaydi: olib kelmoq, sotib olmoq kabi: *Hamma qo'lini yuziga olib borib, omin qildi.*(Sh.Sa'dulla.)

Urushdan qochgan askarlardan qurol-yarog' sotib olib, bosqinchilik qilishgacha borib yetiptilar. (I. Sodiqov.)

Chumchuq o'zini opqochib, pirr etib olg'a uchdi-da, nim qorong'I yo'lakka kirib ketdi. (Sh.Sa'dulla.) (22;212)

Shu ma'noda agar ingliz tilidagi qo'shma fe'llarga izoh beradigan bo'lsak, ular asosan predlog+ fe'l va boshqa tipdagi ko'rinishlarda bo'ladi. Misol uchun,

Predlog+ fe'l- *overrate, underline, outrun;*

Ravish+ fe'l- *downsize, upgrade;*

Sifat + fe'l - *whitewash, blacklist, foulmouth;*

Ot + fe'l - *browbeat, sidestep, manhandle;*

Predlog + ot - *out-Herod, out-fox.*

Ingliz tilida ot+ fe'l tipidagi qo'shma fe'llar kam uchraydi, chunki ot odatda fe'lga vositali to'ldiruvchi sifatida bog'lana olmaydi. Ingliz tilida 'bread – bake', 'car- drive' tipidagi qo'shma so'z yo'q, lekin shunday bo'lsa ham biz yuvish uchun berilgan yo'riqnomani (handwash)va badiiy adabiyotlardagi qo'shma so'z ham (breastfeed) kabi qo'shma so'zlarga duch kelamiz.

Qo'shma otlarning yana bir xususiyati ularning ikkala komponenti ham urg'u oladi. Hattoki urg'u oladigan qo'shma so'z ajratib yozilsa ham uning har ikkala qismiga ham birdek urg'u tushadi. Masalan, FOOTball; ARMchair;

MAILbox va boshqalar. Ammo istisno tariqasida manKIND soʻzini olishimiz mumkin. (6)

Oʻzbek tilida qoʻshma soʻzlarning oʻrganilishida yakdillik yoʻq. Zero ayrim olingan bir til birligining oʻzi qoʻshma soʻz yoki boʻlmasa soʻz birikmasi sifatida izohlaniladi. Masalan, “ogʻir oyoq” til birligi oʻzbek tilining izohli lugʻatida “ogʻir oyoq” deb ajratib yozilib, soʻz birikmasi sifatida beriladi va shu sahifaning oʻzida “ogʻiroyoq” xomilador maʼnosida qoʻshma soʻz deb izohlaniladi va bu til birligining ikkinchi qoʻshma soʻz variantini toʻgʻriroq deb maʼqullaniladi. Ikkala holatda ham mazkur til birliklarining nima sababdan qoʻshib yozilishi yoki nima sababdan ajratib yozilishi va ularning birga yoki ajratib yozilgan holatlarida maʼno jihatdan oʻzgarish yoki farqi bor yoʻqligiga izoh berilmaydi.

Bizning fikrimizcha, bu va bunga oʻxshash masalalar ilmiy jamoatchilik tomonidan kengroq oʻrganilishi va mazkur muammolarga oydinlik kiritilishi zarur. Oʻzbek tilidagi qoʻshma soʻzlarning oʻzaro maʼno mazmuniga qarab muayyan turlarga boʻlib oʻrganilish imkoniyatiga kelsak, oʻzbek tilida ham ularni Gʻarbiy Yevropa tillaridagi qoʻshma soʻzlarning boʻlinish xususiyatlarini sezish qiyin emas. Masalan, “temir qoziq” yoki “yogʻoch qoziq” qoʻshma soʻzlari ikki komponentdan iborat boʻlib, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelayotganligi va shu nuqtai nazardan ularni **“atributiv qoʻshma soʻzlar”** turiga ajratish har qanday eʼtirozdan holi narsa. Zero, mazkur qoʻshma soʻzlardagi birinchi aniqlovchi komponent ikkinchi aniqlanmish (asosiy soʻz) “qoziq”ning temirdan yoki yogʻochdan ekanligini aniq koʻrsatib turibdi. Shu maʼnoda, temir-beton qoʻshma soʻzini tahlil qiladigan boʻlsak, u kopulativ qoʻshma soʻz turiga mansubligi va ikkala komponent ham oʻz maʼnosiga ega ekanligi yaʼni bir-birini aniqlab kelmayotganligini anglash mumkin. Bu qoʻshma soʻz komponentlariga “qanday temir?”, “Qanday beton yoki qanaqa temir, qanaqa beton?” deb savol qoʻyib boʻlmaydi, chunki ular yaxlit bir tushunchani yaʼni narsani anglatib turibdi va temirdan yasalgan betonni bildiradi.

Quyida biz ingliz tilidagi bir necha tipdagi qo'shma so'zlar ro'yxatini misol sifatida keltiramiz: (7)

Ot+ ot – football Ravish + fe'l –upgrade
Sifat + fe'l –whitewash
Ot + fe'l –manhandle
Predlog + ot –out –fox
Predlog + fe'l –underline
Sifat+fe'l–foulmouth
Ot+ot-moonlit
Fe'l+ ot- playhouse
Ot+fe'l –moonshine
Predlog+ ot- uptime
Ot+ ot- lifework
Fe'l + predlog- showoff
Fe'l + ot- telltale
Predlog+ ravish- forever
Sifat + ot- blackboard
Fe'l + ot – breakwater
Predlog + ot - underworld
Ot + sifat – snow white
Sifat + sifat – blue green
Fe'l + sifat –tumbledown
Predlog + sifat-over-ripe
Ot + fe'l –browbeat
Sifat + fe'l –highlight
Fe'l + fe'l -freeze-dry
Predlog + fe'l –undercut

Ot + predlog -love- in
Ravish + predlog –forthwith
Fe'l+ predlog –takeout
Predlog + predlog –without
Predlog + fe'l –outrun
Ravish + fe'l –upgrade
Sifat + fe'l –whitewash
Ot + fe'l –manhandle
Predlog + ot –out –fox
Predlog + fe'l –underline
Sifat+fe'l–foulmouth

Bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1.Qo'shma so'zlar shu kunga qadar Yevropa tilshunosligida keng qamrovda o'rganilganligiga ishonch hosil qilgan holda, nemis va ingliz tilshunoslarining bu boradagi fikr va mulohazalari bilan yaqindan tanishdik.

2.O'zbek tilshunoslari tomonidan qo'shma so'z va so'z birikmasi o'rtasidagi farqlarga oydinlik kiritilgan va ular bafurja tahlil qilingan. *Qo'shma so'zlar tarixan so'z birikmalaridan o'sib chiqqan. Til taraqqiyoti jarayonida so'z birikmasi qismlarining ma'no va grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi, uning qismlari orasidagi sintaktik munosabatning yo'qolishi hamda ularning bir ma'no markaziga birlashishi natijasida qo'shma so'zga aylanadi.*

3.O'zbek tilida qo'shma so'zlarning o'rganilishi hali ko'p izlanish va tadqiqotlarni talab qiladi. Shu asnoda tilimizdagi qo'shma so'zlarni xuddi boshqa tillardagi kabi morfologik va semantik jihatdan turlarga ham ajratish mumkin.

IKKINCHI BOB: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA

“BAHUVRIHI”LAR

Ushbu bob va fasllarda o‘zbek tilshunosligida haligacha nisbatan kam o‘rganilgan mavzu- **attributiv(aniqlovchili) qo‘shma so‘zlar yoxud bahuvrihilar** tahlilga tortiladi. Unda “bahuvrihi” borasida dunyo (asosan Yevropa)tilshunosligida aytilgan eng ilg‘or nazariy ma’lumotlarga tayanilib,o‘zbek tilida (xalqimiz nutqida) uchrovchi bahuvrihi (leksikologik vosita)larga morfologik va semantik izohlar beriladi.

“Bahuvrihi” termini hali o‘zbek tilshunoslariga yaqindan tanish emasligini inobatga olgan holda, avvalo , mazkur atama va u orqali angalashiladigan leksikologik vositaga izoh berib o‘tiladi va “bahuvrihi” so‘zi kelib chiqishi, ma’no va mazmuni, bahuvrihining aniqlovchili (attributiv) qo‘shma so‘zlarning bir turi bo‘lib, uning ostida inson shaxsi nomlanishi bilan bog‘liq holda yasalgan qo‘shma so‘zlar tushunilishi haqida yetarlicha ma’lumot va izohlar keltiriladi. Bundan tashqari, mazkur bobimizda bahuvrihining tilimizdagi boshqa attributiv qo‘shma so‘z(tuyaqush, qizilishton, oshqozon, ko‘kqarg‘a va bosh)lardan farqlanish xususiyatlari va belgilari misollar va ularning tahlillari asosida, astoyidil, yoritib beriladi va izohlaniladi. Bir so‘z bilan aytganda, bu bob o‘zbek o‘quvchilariga hali notanish bo‘lgan “bahuvrihi” termini ostida nima yashirin ekanligi va uning morfologik xususiyatlari bilan sizni yaqindan tanishtiradi va o‘zbek tilining boy leksikasi qatoridagi bahuvrihilarga ham izoh beradi.

2.1. “Bahuvrihi” va uni boshqa qo‘shma so‘zlardan farqlanish xususiyatlari

Grammatik tobelik munosabatlari asosida birikkan, yoki, bu munosabat aniq anglashilmaydigan ikki va undan ortiq so‘z yoki so‘z shakllaridan tashkil topib,asosiy va yordamchi urg‘ular ostida talaffuz qilinadigan, bir tushunchani ifodalaydigan so‘z **qo‘shma so‘z** deyiladi. Masalan: belbog‘, yer yong‘oq, yertandir, muzyorar, kungaboqar, ko‘zoynak, oshqovoq, so‘z boshi, mehmondo‘st, sohibjamol, o‘zbilarmon. (10)

Qo'shma so'zlar Yevropa tillarida o'ziga xos turlarga ajratib o'rganiladi. Yuqoridagi bobimizda bunga o'zingiz ham guvohi bo'ldingiz, jumladan ingliz tilida 4 ta guruh va qolaversa roman –german oilasiga mansub bo'lgan nemis tilida qo'shma so'zlar 4 ta guruhga bo'linadi.

1. Attributive Zusammensetzungen
2. Kopulative Zusammensetzungen
3. Zusammenrueckungen
4. Zusammenbildungen

Attributiv qo'shma so'zlar (aniqlovchili qo'shma so'zlar) bir biri bilan qo'shma so'z komponentlarining aniqlovchi-aniqlanmish xususiyatlariga qarab belgilanadi. Odatda qo'shma so'zning birinchi komponenti birinchisini aniqlab kelishi mumkin(yoki teskarisi- das Jahrhundert, das Zehnt). Bu turdagi qo'shma so'zlar komponentlari otlardan yoki sifatlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, *Schwarzbrot, Tischlampe, Tageslicht, Sonnenstrahl, dunkelrot* kabi. Xuddi shu guruhga mazkur bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot obyekti bahuviyliklar ham kiradi. Misol uchun, Graukopf, Rotkaepchen.

Kopulativ qo'shma so'zlarda komponentlar sintaktik , semantik jihatdan teng huquqli bo'ladilar, yoxud ularda tobelik yoki hokimlik bo'lmaydi. Ularning ma'nosi teng huquqlilik asosida mushtaraklashadi, chunonchi: *Strichpunkt, taubstumm, dreizehn, zweiundzwanzig, bittersuess*.

Siqishtirilgan qo'shma so'zlar(Zusammenrueckungen) bu xil qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq erkin bog'langan komponentlardan ba'zan xatto gaplardan iborat bo'ladi. Bunda erkin so'zlar yoki biror gap ichidagi so'zlar – har bir gap bo'lagi o'z o'rnida qo'shib (siqib olib kelinib) qo'llaniladi. Har biz so'z o'zining ma'no mustaqilligiga ega bo'ladi va gap nima haqida ketayotganligi yaqqol tushunib turiladi. Ayrim hollarda, ma'no ko'chishi ro'y berishi mumkin, jumladan, *Vergissmeinnicht, Einmaleins, derart, infolge, stehenbleiben* kabilar. To'la bir gapni qo'shib yozilishini misol keltiramiz. *Du bist zu spaet. – Kam der Buss nicht zur rechten Zeit. Lass deine Ausrede “Eskamderbussnichtzur rechtenzeit!”*

Qo'shib yasalgan so'zlar (Zusammenbildungen) bu tur qo'shma so'zlar ikki leksikologik jarayon- vosita asosida yasaladi. Ularning komponentlaridan biri yasama so'z bo'lib, tilda alohida qo'llanilmaydi. Masalan, *Fruehaufsteher, Inbetriebsetzung, blaueaugig* kabilari. (2;45)

Shu o'rinda "bahuvrihi" terminiga izoh beradigan bo'lsak, "**bahuvrihi**" so'zi kelib chiqish nuqtai nazaridan sanskrit tili mahsuli hisoblanadi. Bu atama eski hind tilida "*ko'p guruch*" yoki "*guruch boyi*" ma'nosini anglatadi. Bahuvrihi aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlarning bir turi bo'lib, uning ostida inson shaxsi nomlanishi bilan bog'liq holda yasalgan kompozita (qo'shma so'z)lar tushuniladi. Ma'lumki, aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar ikki komponentdan (tobe, hokim) iborat bo'lib, ularning biri ikkinchisini, ikkinchisi esa birinchisini aniqlab keladi. Komponentlar (qo'shma so'zning aniqlovchi va aniqlanmishlari) qo'llanilish maqsadlariga ko'ra o'rinlarini almashtirishlari (nozikbel-belinozik) mumkin. (1)

*Bahuvrihining boshqa attributiv qo'shma so'zlardan farqi shuki, u orqali ifodalanilayotgan shaxs (kimsa) ma'nosi ko'chma - metaforik-metonimik xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni bu qo'shma so'zlar ostida asosan tirik shaxs (odam)ning o'ziga xos tomoni, belgisi, uning boshqalardan ajralib turuvchi alohidaligi tushuniladi. Uning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, u sinekdoxa (qism orqali butunni anglatish) orqali va umuman kishi shaxsini to'la nomlaydi va izohlaydi. So'zimizning isboti sifatida quyidagi misollarga e'tibor qaratishingizni so'raymiz: **olako'z** (ko'zi ola odam, shaxs nomlanishida uning faqat ko'zlari e'tiboga olingan), **qirg'iyburun** (burni qirg'iylikiga o'xshash shaxs, burun orqali nomlanayapti), **shalpangquloq** (qulog'ining me'yordan kattaligi uchun quloq so'zi bilan butun boshli bir shaxs nomlanayapti), **chalishoyoq** (chalish oyoqlari orqali uning egasi nomlanilayapti) va boshqalar. Yuqoridagi misollarning barchasida odam tanasining bir qismi orqali uning o'ziga diqqat qaratilgan ya'ni qism orqali bir butun ifodalangan (sinekdoxa). Ma'no ko'chishi (metafora) asosida qo'shma so'z komponentlarining semantikasi e'tibordan chetda qoladi. Masalan, "xumkalla" bahuvrihi ostida *ahmoq odam**

tushuniladi, “xum “va” kalla” soʻzning lugʻaviy maʼnolari soyada qoladi, koʻrinmaydi. Shu maʼnoda, bahuvrihilar **muayyan shaxsning xarakterli xususiyatlarini**(toshbagʻir, ochkoʻz, shirinsuxan), **tashqi koʻrinishi** (olakoʻz, kaltasoch), **ichki hislarini**(alamzada, jabrdiyda), **kiyimlari**(kaltayubka, uzunkoʻylak), **tana aʼzolari**(soch, koʻz, quloq, oyoq, qoʻl va boshqalar, jigargoʻsha, yolgʻizqoʻl), **qiliqlari** (ishbuzar, ikkiyuzlamachi), **dunyoqarashi, feʼl-atvori, kayfiyati, tevarak atrofdagilarga munosabati**(*hayotda, oilada, oʻqish ish joyida, koʻchada, jamoat joylaridagi shaxsning oʻzini tutishi, xarakteri*) va umuman insonni xarakterli imkoniyatlarini tasvirlashda keng qoʻllaniladi.

Shuningdek, bahuvrihi boshqa qoʻshma soʻzlardan u orqali anglashilayotgan narsa, hodisa va shaxs bahuvrihi yasagan soʻz komponentlari maʼnosi bilan juzʼiy (qisman) bogʻliq boʻlsada, aynan shu soʻzlar anglatgan maʼnolarga uzviy aloqasi yoʻqligi bilan farq qiladi. Binobarin, **“ochkoʻz”** bahuvrihi soʻzini ochlik yoki koʻz bilan bevosita aloqasi yoʻq, negaki bu soʻz orqali biz “yeb toʻymaydigan, nafsini tiyolmaydigan, nafsi buzuvchi yoki biror narsaga oʻch va ortiqcha xirs qoʻygan odam”ni tushunamiz. Bundan tashqari yana bir misol **“kaltadum”**. Bu bahuvrihi anglatayotgan maʼnolar ham oʻziga xos, sababi shuki biz birinchi, oʻz maʼnosida *‘dumi kalta jonivor’*ni tushunsak, keyingi shaxsga koʻchirilgan, koʻchma maʼnoda esa *‘Yevropacha kiyingan, kalta kiyim kiygan ayol’* degan mazmunda qoʻllanilayotganiga guvohi boʻlamiz. Masalan, **Kaltadum eshak.** ; *U, shahardan kelgan kaltadum, domlani boshini aylantirib, unga tegib oldi.* (27) Yuqorida keltirgan misollarimizni izohlasak; koʻrinib turibdiki, birinchi naʼmunada “kaltadum” soʻzi eshak soʻzini aniqlovchisi sifatida soʻz birikmasi hosil qilgan va mazkur qoʻshma soʻz oʻzining qismlari orasidagi semantik bogʻliqlikni ham saqlab qolgan, chunki yuqorida hayvon dumining kalta yoki uzunligini aniqlab kelgan. Ammo keyingi misolda “kaltadum” soʻzi qismlarining orasida semantik jihatdan bogʻliqlik umuman yoʻq, u oʻzi anglatgan maʼnoda juda ham uzoqdagi yangi bir soʻzni yaʼni shaxsni ifodalab kelgan, lekin uning maʼnosi qisman saqlanib qolgan boʻlsa ham, ayol kiygan kiyimning kaltaligiga ishora qilayapti, oʻz maʼnosidan chekingan. U anglatgan asl mazmun ancha chetda qolgan. Qoʻshimcha ravishda

boshqa misollarni ham keltirishimiz mumkin, jumladan **“bo‘tako‘z”** so‘zi uning asli ma’nosi *“murakkabgillilar oilasiga mansub, binafsha yoki havorang gulli bir yillik begona o‘t”* degani bo‘lsa, u biz istagandek bahuvruhini ifodalab, ko‘chma ma’noda shaxs tashqi ko‘rinishini anglatib kelishi ham mumkin. Misol uchun, *“tuya bolasining ko‘ziga o‘xshash chiroyli ko‘z; shahlo ko‘z va shunday ko‘zli kishi”*; ya’ni **(Farg‘onaning) Qizlari sizga o‘xshagan bodomqovoq, bo‘tako‘z bo‘ladi.** (Shuxrat, Shinelli yillar) (26) Bu yerda qizning ko‘zi tuya bolasining ko‘ziga o‘xshatilmoqda va shu asosda ma’no ko‘chmoqda. Aytish joizki, o‘zi anglatgan birinchi ma’noda u oddiy ikkita komponentdan tashkil topgan qo‘shma so‘z sifatida kelgan bo‘lib, keyingi o‘rinda kelganida bahuvrihi, ya’ni inson xarakter-xususiyatini, aniqrog‘i tashqi ko‘rinishini anglatib kelgan. Shu o‘ziga xos jihati bilan bahuvrihi boshqa qo‘shma so‘zlardan farqlanadi va asosan o‘z qismlari orasidagi bog‘liqlikni yo‘qotadi.

2.2. O‘zbek tilida “bahuvrihi” lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari

O‘zbek tilida biz kundalik nutqimizda qo‘llaydigan, ammo uning nimaligini, qanday so‘zligini bilmaydigan qanchadan qancha bahuvrihilar mavjud. Shu ma’noda, bahuvrihilar **muayyan shaxsning xarakterli xususiyatlarini** (toshbag‘ir, ochko‘z, shirinsuxan), **tashqi ko‘rinishi** (olako‘z, kaltasoch), **ichki hislarini** (alamzada, jabrdiyda), **kiyimlari** (kaltayubka, uzunko‘ylak), **tana a‘zolari** (soch, ko‘z, quloq, oyoq, qo‘l va boshqalar, jigargo‘sha, yolg‘izqo‘l), **qiliqlari** (ishbuzar, ikkiyuzlamachi), **dunyoqarashi, fe‘l-atvori, kayfiyati, tevarak atrofdagilarga munosabati** (*hayotda, oilada, o‘qish ish joyida, ko‘chada, jamoat joylaridagi shaxsning o‘zini tutishi, xarakteri*) va umuman insonni xarakterli imkoniyatlarini tasvirlashda keng qo‘llaniladi.

O‘zbek tilining yangi nashrda bosmadan chiqqan besh jildlik izohli lug‘atida hamma so‘zlar qatori bahuvrihilarga ham yetarlicha o‘rin berilgan astoyidil qayd qilinilgan, ammo ularning aynan attributivli qo‘shma so‘z yoxud

bahuvrihi ekanligi haqida qaydlar yo‘q. Shu o‘rinda biz sevgan ona tilimiz bahuvrihilarga juda boy ekanligiga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. So‘zimizning yaqqol isboti sifatida o‘zbek tilidagi bahuvrihilarni, baholi qudrat, kengroq o‘rganishga harakat qildik va shaxs tushunchasini yoritib beruvchi har qanday unga xos bo‘lgan *xarakter, xususiyat, fazilatlarini qolaversa, insonga Olloh tomonidan berilgan beqiyos qirralarini ochib beruvchi yoki zamondoshlari tomonidan berilgan baho(ijobiy, salbiy)*larni bildiruvchi bu qo‘shma so‘zlarni imkoni boricha turlarga bo‘lib chiqdik va tahlil qildik. Biz yuqorida tilga olgan o‘zbek tilidagi bahuvrihi turlarini va ularga mansub bo‘lgan attributiv qo‘shma so‘zlarni, kengroq mushohada yurgizgan holda, morfologik va semantik xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qilamiz. Shu asnoda, o‘zbek tili izohli lug‘atidagi bahuvrihilarni ma’no va mazmun jihatdan turlarga ajratdik. Quyida esa sizga har tomonlama salmoqli bo‘lgan, ona tilimiz hisoblanmish, o‘zbek tilida kishining xarakter xususiyati bo‘yicha aniqlangan, o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridan to‘plangan bahuvrihilarimizni taqdim qilamiz. Umumiy hisobda izohli lug‘atdan inson xarakterini anglatadigan 120 ta bahuvrihini topishga muvaffaq bo‘ldik.

Quyida ularni keltiramiz: *ajdarnafs, araqxo‘r, bulbulnavo, boqibeg‘am, betgachopar, banginamo, balandparvoz, badhavo, badxulq, badfe‘l, badrashk, badnafs, badmast, badkor, badkirdor, badjahl, badgumon, badaxloq, valakisalang, gapsotar, dilsiyoh, dehqonsifat, damduz, devyurak, devonasifat, darveshsifat, yebto‘ymas, yelqanot, juvonmard, jonfido, jonkuyar, jinnisang‘i, jahonbaxsh, jo‘jaxoroz, ishyoqmas, ishbuzuqi, ishbilarmon, kamfahm, kamsuqum, kamgap, kaltafahm, kamhafsala, kallavaram, kamqon, lattachaynar, mehmondo‘st, nuktadon, nuktafahm, nozikfahm, nozikta‘b, nekbin, neqqadam, nekbaxt, og‘irkarvon, onaxotin, oyimtilla, ofatijon, oliyhimmat, oyimsupurgi, odamovi, orabuzar, serpardoz, sobitqadam, sernoz, serishva, soddadil, tartibbuzar, tekturmas, tilyog‘lama, ulig‘sifat, xushtakalluf, xushta‘b, xushfe‘l, xushchaqchaq, xushxulq, xushovoz, salqintob, sergap, sertavoze, sertakalluf, xotinchalish, xudobezor(i), xudobexabar, xudoyixo‘r, xudotars, xunxo‘r,*

xushfe'l, xushatvor, xushaxloq, xushbaxt, xushgap, xushdil, xushyoqmas, xushmulozim, xushkayf, xushmuomala, xushnavo, xushtavoze, xushtabiat, xushsuhbat, cho'rtkesar, shirinsuxan, shartkesar, shirinso'z, shumqadam, yakkamoxov, o'yinbuzuqi, o'zbilarmon, o'zboshimcha, g'amxo'r, hardamxayol, haromnamak, haftafahm, haqsevar, hozirjavob, hushyor, hurmattalab, hamdard, hamgap, hamdo'st kabi. (26-30)

O'z o'rnida, xarakter termini keng ma'noda qo'llanilishidan yaxshi xabardormiz, jumladan ijobiy ma'noni ochib beruvchi inson xarakterini bildiradigan qo'shma so'zlar, qolaversa insonga xos salbiy xarakterlarni ham bayon qilish xususiyatiga ega bo'lgan qo'shma so'zlar ham mavjud. Bundan tashqari, insonga tabiiy berilgan, tug'ma xarakterlar, ayni paytda unga boshqalar "atab" qo'ygan nom, shaxsga boshqalar bergan baho, shaxsni shaxsan o'zi bilan bog'liq bo'lgan xarakter, o'zgalar tashvishi bilan yashash, qayg'urish, insonning o'zuga xos qiliqlari va fazilatlari kabi xarakterlar ham misol bo'la oladi, chunonchi insonlarning ijobiy qirralarini ochib beruvchi bahuviyliklarga to'xtaladigan bo'lsak: *bulbulnavo* -(bulbul+navo) "bulbul kabi kuylovchi, bulbuldek xushovoz" degan ma'noni bildirib, insonning kuylash qobiliyatini va ovozini bulbulnikiga taqqoslab, o'xshatish orqali ma'no shaxsga ko'chirib o'tkazilgan. Bubga quyidagi misolda o'zingiz ham guvoh bo'lasiz: (*Qizlar:*) *Bog'da bulbullar bahor madhini kuylar tinmayin, Jo'r bo'ling vaqt o'tmasin, bulbulnavolar, qaydasiz? (Uyg'un, Laqma).* Yuqoridagi misolda 'bulbulnavolar' so'zi shaxsga o'zgalar tomonidan qo'yilgan baho, uning madhiga aytilgan yaxshi so'z hisoblanadi. Shu o'rinda u ijobiy xislatga yaqqol misol bola oladi. Bahuviylikning yana boshqa xususiyatlarini keyingi misollarimizda ham ko'rishingiz mumkin. 'Banginamo' va 'bangibashara' bahuviyliklariga to'xtaladigan bo'lsak, ulardan birinchisi 'banginamo' (bangi+ko'rinuvchi) "xatti-harakati, holati bangiga o'xshagan; bangitabiat" degan ma'noda kelsa, ikkinchisi 'bangibashara' esa (bangi+bashara) "ko'rinishi bangilarga o'xshash, bangisifat" degan ma'nolarni anglatadi. (*Qorovul*) *Uzun mo'ylovli, ko'zlari ola-bula banginamo kishi edi. Alqissa, baq-baqaloq Mulla Mamasolih bin Mulla Madkarim Mahdum bilan novcha bo'yli,*

bangibashara hudhud so'fi xonagohda o'tirishib, bir soat chamasi mudrashdilar. (N.Maqsudiy. *Laylatulqadr.*) Undan tashqari 'banginusxa' bahuvrihisi ham mavjud bo'lib, u (bangi+nusxa) "tashqi ko'rinishi bangilarga o'xshash; banginamo" deganidir. *-Ey taqdir, xato qilibsiz, tushuning, bu majlis! – dedi chil tomirday qotma, novcha katta ko'zli, banginusxa, lekin kiyingan-tovlangan bir shaxs.* (Oybek. *Nur qidirib.*) Bu misol tariqasida keltirib o'tilgan bahuvrihilar deyarli bir xil mazmunni ifodalasalar ham, ularning oralarida farqli tomonlar mavjud. Masalan, 'banginamo va banginusxa' bahuvrihilari o'zaro ma'nodosh hisoblanadilar, ayni paytda esa bangibashara bo'rttirilgan, salbiy ma'noda kelgan, chunki bashara so'zi salbiy xususiyatli tashqi ko'rinishni ifodalovchi sinonimlarga boy so'zdir. Yuqoridagi misolda *'Alqissa, baq-baqaloq Mulla Mamasolihi bin Mulla Madkarim Mahdum bilan novcha bo'yli, bangibashara hudhud 'baq-baqaloq, bangibashara'* so'zlari mullaning so'zlovchiga yoqmaydigan tomonlariga urg'u berib turibti. Shu asnoda boshqa bahuvrihilarimiz ham borki, ular nafaqat o'z ma'nolarida, balki ko'chma ma'noda ham birdek tilimizda, nutqimizda qo'llaniladi, jumladan, "badhavo" attributiv qo'shma so'zi- (bad+havo) "havosi buzuq, yoqimsiz" deya o'z ma'no-mazmunini saqlab qolsa, ko'chma ma'noda (bad+havo) "o'zini o'zgalardan yuqori oluvchi, dimog'dor; takabbur" shaxs xarakter-xususiyatini anglatadi. *Badhavo joy. Badhavo odam.* Bundan tashqari, 'badkirdor va badkor' bahuvrihilari o'zaro sinonimlik hosil qiladi: "(razil, yomon ishlar qiluvchi) Yomon, qabih harakatlar qiluvchi, yaramas odam", "(yaramas ishlar qiluvchi) kam.qo'll. Qabih ishlar qiluvchi, yomon niyatli", ammo badkor bahuvrihisi kam qo'llanilishi bilan ma'nodoshidan biroz farq qiladi. *-Tilida qur'on so'zi, ammo Qilmish-qidirmishi gunohdan iborat bo'lgan haromxo'rlar, badkirdorlar, zolimlar ozmi? – dedi Ahmad Xusayn.* (Oybek, *Nur qidirib*); *Ofatingdan saqla, yoparvardigor! Norasida qizga qo'l soldi badkor.* (Mirtemir) Biz keltirib o'tgan misollarga qarab, ikkala bahuvrihi ham shaxsning salbiy xususiyatini, o'z o'rnida unga omma tomonidan qilgan ishlariga qarab qo'yilgan nomlarni bildirayotganligiga amin bo'lamiz. Yana boshqa bir so'z "valakisalang" so'ziga kelsak, u "o'ta ketgan beg'am, beparvo; ishyoqmas; xumpar, devona"

degan ma'noni anglatadi. Endi “kaltafahm va haftafahm” so'zlarining ma'nolariga izoh bersak (fahmi kalta, tushunchasi bor) “darrov tushunib, uqib ololmaydigan, aqli, fahmi yetmaydigan, fahmi kalta”, “biror narsani darrov uqib, tushunib ololmaydigan, fahmi kalta; anqov, befarosat” degan ma'nolarni anglatadi va ikkalasi ham bir xil tipdagi shaxs xarakter-xususiyatini bildiradi. *Mullavachchalar zehni o'tkirroq sheriklarini “xushfahm”, zehnsizlarini*

“haftafahm” deb atashardi. (M.Muhammadjonov, *Turmush urinishlari*.) Bu qo'shma so'z bizga go'yo eshitgan narsasi faqat bir hafta yodida turadigan odamni tasavvur qilishimizda yordam beradi, lekin uni nutqimizda kam qo'llaganimiz uchun u bizga yangi va notanish so'zdek tuyuladi. Yana bir qo'shma so'z borki, unga alohida urg'u berishimiz zarur; u '**damduz**' attributiv qo'shma so'zidir. Agar uni ma'no bildiruvchi qismlarga ajratsak, 'dam' va 'duz' so'zlari umuman bir biriga ma'no jihatdan aloqador bo'lmagan so'zlar hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda ta'kidlashimiz joizki, bu ikkala mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar qo'shib, quyidagicha ya'ni (nafasi, og'zi bog'liq) “ko'nglidagini birovga aytmaydigan, kimsaga sir bermaydigan, kamgap” ma'nosini beradi va e'tibor shunday shaxsga qaratiladi. Bunga misolimizda ham guvohi bo'lishingiz mumkin: **Damduz odam**.

Demak, yuqorida izohlangan attributiv qo'shma so'z 'dami' ya'ni nafasini chiqarmaydigan, hech kimga ortiqcha gap aytmaydigan va sirlarini pinhon tutuvchi xarakterli odamni anglatadi va shaxsga o'zgalar bergan nom deb hisoblasa ham bo'ladi. Mazkur bahuvruhilar bilan cheklanib qolmasdan, keyingi izohini kutayotgan, boshqa, g'ayritabiiy ma'nolarni anglatuvchi qo'shma so'zlarimizdan ham sizga misollar keltiramiz. Misol uchun, “**yelqanot**”. Bu so'z ayniqsa, ta'kidlashga arziydigan so'z, chunki unda har bir mustaqil ma'nosiga ega bo'lgan negiz bir birini to'ldirib, aniqlab kelgan. Bunga biz uning ma'nosiga berilgan izohni o'qib ham amin bo'lishimiz mumkin. U quyidagicha ma'noni bildiradi: “nihoyatda tez yuradigan, yugurik, uchar”. Bu qo'shma so'z yugurganida xuddi qanot chiqarib, yeldek uchuvchi odamni ko'z oldimizga keltiradi. Uning qismlari, aytganimizdek, bir birini to'ldirib kelgan. Keyingi aytmoqchi bo'lgan bahuvruhilarimiz esa insonning xarakteri qirralarini ochib berdigan qo'shma

soʻzlardir. Masalan, **“juvonmard, jonfido, jonkuyar, jahonbaxsh”** soʻzlariga toʻxtaladigan boʻlsak, ularning barchasi bir biri bilan maʼno va mazmun jihatdan uzviy boʻgʻliq boʻlib, oʻzaro sinonimik xususiyatlarga ham ega, chunonchi **“juvonmard”** soʻzi **“(oliyjanob, mard kishi, oliyjanob, mard) 1. mard, botir, dovyurak 2.Oliyjanob, oliyhimmat hotam”** degani boʻlsa, **jonfido** esa **“hayotini fido qiluvchi, hayotini bagʻishlovchi”** demakdir. *Onam yeng shimarib, ushatmoqda non. Doimo mehribon, doimo jonfido.* (Mirtemir) (27)

Ayni paytda **“jonkuyar va jahonbaxsh”** qoʻshma soʻzlari ham oʻzlarining bir biriga yaqin maʼnolariga egadirlar. Ulardan biri **“biror ish, soha yoki kishi uchun jon kuydiruvchi, astoydil gʻayrat koʻrsatuvchi; gʻamxoʻr”** boʻlgan insonni aglashda yordam bersa, ikkinchisi esa **“(jahonni hadya qiluvchi) sahiy, qoʻli ochiq”** odam xususiyatini bildiradi. Misol uchun, *Mening jonkuyarlarim bor.* Biz alohida taʼkidlagan bu qoʻshma soʻzlar, insonga xos boʻlgan yaxshi xulq, fazilatlar va uning boshqalarga qaygʻurish, ularning tashvishi bilan yashash kabi xarakterlarini anglatadi va ochib beradi. Shu oʻrinda boshqa bir attributiv qoʻshma soʻzga toʻxtaladigan boʻlsak, **“jinnisangʻi”**. Bir koʻrganda sangʻimoq va jinni soʻzlari orasida bogʻliqlik va aloqa yoʻq, lekin shunga qaramasdan oʻzbek tili oʻzining boy va qiziqarli leksikasiga ega ekanligini oʻz oʻrnida taʼkidlab oʻtish lozim, shu yerda bu soʻzning maʼnosiga izoh bersak: **“nojoʻya, ahmoqona ishlar, kelishmagan qiliqlar qilib yuradigan”** shaxsni anglatadi. *Jinnisangʻi odam Xuddi jinnisangʻilarday oʻzi bilan oʻzi gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir gaplashadi.* (S.Anorboyev, Oqsoy). Oʻz oʻrnida shuni aytib oʻtishni maʼqul topdikki, bu 'jinni' va 'sangʻi' soʻzlaridan tashkil topgan soʻz, qoʻshma soʻzlarning biz yuqorida ingliz va nemis tillarida bafurja toʻxtalib oʻtgan qoʻshma soʻzlarning **“kopulativ”** turiga mansub desak ham boʻladi, chunki uning oʻz mustaqil maʼnosiga ega negizlarining har biri oʻz maʼnosini saqlagan holda uchinchi bir narsaga qaratiladi. Navbatdagi biz mushohada yuritmoqchi boʻlgan qoʻshma soʻz omma nutqida koʻp qoʻllaniladigan va oddiy jonivor nomi shaxsga koʻchirib oʻtkazilgan qoʻshma soʻzlardan biri hisoblanadi. U **“joʻjaxoʻroz”** qoʻshma soʻzidir va **“yosh, urushqoq xoʻroz”** degan maʼnoni bildiradi. *“Obid ham joʻjaxoʻrozdek sapchib turdi.* (X. Sultonov,

Onamning yurti) Zoyirjonning qop-qora yuzi alamdanda ko‘karib ketgan, o‘tirgan joyida **jo‘jaxo‘roz**day burnini cho‘zib gapirardi. (O‘. Hoshimov, *Qalbingga quloq sol.*) Aytish joizki, bu qo‘shma so‘z asl ma‘nosida kichkina, yosh xo‘rozga nisbatan ishlatiladi, lekin biz kundalik nutqimizda uning ma‘nosini shaxsga ko‘chirib, uni ot ko‘rinishida ishlatamiz, misol uchun “*Hoy, jo‘jaxo‘roz, o‘zingdan kattalar turganida, senga gapirishni kim qo‘yibdi?!’*” Nutqimizda bu kabi misollar ko‘p uchraydi. Misol uchun, “xomkalla”. Bu qo‘shma so‘zni biz ‘esi pastroq, gap so‘zida tuturig‘i yo‘q” odamlarga nisbatan qo‘llaymiz, odatda birozgina tergap qo‘yish uchun. Undan tashqari nutqimizda boshqa bahuvrihilar ham mavjudki, ularga ham alohida izoh berib o‘tishimiz darkor. Misol uchun, “**ishbuzuqi**”. “Bitib turgan ishni buzuvchi, kelishilgan masalada qarshilik ko‘rsatuvchi odam; buzuqi, g‘alamis”. Bu so‘z shaxsga uning tevarak atrofdagilarining bergan bahosidan va omma ichida qilgan qaysidir ishidan yoki nojo‘ya harakatidan so‘ng, odamlarning unga atab qo‘ygan nomi hisoblanadi, chunki agar odamning hatti harakatlariga guvohi bo‘lmasangiz, uning ishbilarmonmi yoki ishbuzuqi ekanligini bila olmaysiz, o‘z o‘rnida “**ishbilarmon**” qo‘shma so‘zi ham odamlarning atab qo‘ygan nomi hisoblanadi, lekin u ishbuzuqiga zid bo‘lgan ma’noda qo‘llaniladi. Bir qarashda “**kamsuqum va kamgap**” qo‘shma so‘zlari bir xil ma‘no anglatadigandek tuyuladi, biroq ular ma‘no jihatdan bir birlaridan biroz farq qiladilar, chunki “kamsuqum” so‘zi “o‘zini kamtar, hokisor tutadigan, tortinchoq tabiatli” degan ma‘noni anglatadi, “kamgap” so‘zi esa “ko‘p gapirishni yoqtirmaydigan, kam gapiradigan” shaxs xususiyatlarini bildirib keladi. *Nasiba qanchalik sergap va sermulozamat bo‘lsa, shunchalik kamsuqum edi. Kamgap odam.* Yana bir qiziq va o‘z o‘rnida izohtalab bo‘lgan keyingi qo‘shma so‘zimiz bu “**kallavaram**”dir. Xo‘sh, nega aynan shu so‘zni izohtalab deb atadik? degan savolga bu so‘zga o‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan ta’rifga suyanganda holda javob beramiz. U quyidagicha: “(shish, o‘tma, yallig‘lanish) aql bilan emas, o‘ylamasdan, pala-partish ish qiladigan shaxs”. Uning ajratib qavs ichida berilgan ta’rifga muvofiq kallavaram – shish, o‘tma, yallig‘lanish degan ma‘noni bildiradi, biroq uning ko‘chma ma’nosi o‘ylamasdan ish qiladigan shaxs demakdir. “*Qodirov – sen meni kallavaram deb*

o'ylama.” Quyida sizning e'tiboringizga malakaviy ish davomida uchragan va meni lol qoldirgan, nutqimizda kam qo'llaniladigan attributive qo'shma so'zni taqdim etmoqchimiz: “**lattachaynar**” bu so'zni eshitishimiz bilanoq, latta chaynayotgan jonivor yoki jism-texnika ko'z oldimizga kelishi mumkin, ammo uning ta'rifiga nazar salsangiz, yanglishganingizga amin bo'lasiz. U “gapining tuturig'i yo'q; bir gapni hadeb takrorlay beradigan; bir gapdan nariga otmaydigan mijg'ov ezma” odamni anglatadi. Bu qo'shma so'z insonga xos bo'lgan salbiy xarakterlardan biriga oydinlik kiritayapti va u ham o'zgalar fikrining asosini tashkil qiladi. *Mana shunday lattachaynar odamni ko'rsa, Nazar ota g'ippa bo'g'iladi-yu, ko'zi tinib og'zidan nima chiqqanini bilmay qoladi.* (S.Ahmad, *Qadrdon dalalar.*) Yana boshqa bahuvrihilarga izoh beradigan bo'lsak, masalan “nuktadon, **nuktafahm**” nuktadon so'ziga to'xtaladigan bo'lsak “(nukta+biluvchi, bilag'on) kam. qo'll. Ayn nuktafahm” degani bo'lsa, ‘nuktafahm’ “(nukta+fahm) kam.qo'll. masalaning tub mohiyatini nozik, mayda chuyda tafsilotlarini yaxshi biladigan, o'tkir fikrlovchi” degan ma'noni bildiradi. **Nuktadon** olim. *Ergash aka tug'ma olim, nuktafahm matnshunos va manbashunos edi.* (Gazetadan). Bu attributive qo'shma so'zlar insonga Xudo tomonidan berilgan qobiliyat va unga xos bo'lgan fazilatni anglatadi. Bu yerda nuktadon so'zi nuktafahm qo'shma so'ziga qaraganda kengroq ma'noni anglatadi, sababi bilish fahmlashdan ko'ra kengroq mazmundagi so'z hisoblanadi. Endi nek negizidan yasalgan turli ma'nodagi qo'shma so'zlarni e'tiboringiz markaziga havola etmoqchimiz. Misol uchun, **nekbin, nekqadam** kabilar. Agar ‘nek’ so'ziga izoh beradigan bo'lsak, u forsha ‘yaxshilik’ ma'nosini bildiradi, jumladan nekbin so'zi “(yaxshilikni ko'ruvchi) har narsani yaxshi tomondan ko'ruvchi, kelajakka ishonuvchi; optimist” shaxsga xos bo'lgan xarakterni anglatib kelgan. Shu o'rinda nekqadam qo'shma so'zining mazmuni ham shunga yaqin hisoblanadi: “(f+a) qadami qutlug' baxt keltiruvchi, sharofatli” degan ma'noni bildiradi. Bizga bahuvrihi insonga xos bo'lgan har qanday xususiyatni anglatishi sir emas. Shundan kelib chiqqan holda “**oyimsupurgi**” qo'shma so'ziga sharh beramiz. O'zbek tilining izohi lug'atida unga quyidagicha ta'riflar keltirilgan: “1. poyasidan

supurgi qilinadigan doni qizil boshqoli o'simlik. 2. Shu o'simlik poyasidan bog'langan supurgi. 3. ko'chma salb. Supurgiday egilib bukilib, bukiladigan, muloyim odam haqida." Ko'rinib turibdiki, oyimsupurgi so'zi asli o'simlik nomini atab kelmoqda, ammo uning ko'chma ma'nosi ostida shaxs, kishi xarakteri yotibdi. Bunga quyidagi keltirmoqchi bo'lgan misolimizda ham o'zingiz guvohi bo'lasiz. *(Mo'min aka) Nechundir, to'satdan kirpi qiyofasidan oyimsupurgi qiyofasiga kirib oldi.* Navbatdagi biz tahlil qilmoqchi bo'lgan attributiv qo'shma so'z bu "**odamovi**" so'zidir. Bu so'zni birinchi ko'rgan, tilimizni endi o'rgana boshlagan odam bu so'z ma'nosini butunlay boshqacha talqin qilishi mumkin. Negaki, 'odam'+ 'ovi' so'zlaridan tashkil topgan bu so'z ularga, go'yo, "odamning ovi" bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu zinhor to'g'ri bo'lmaydi. Nainki, o'zbek tili o'zining boy leksikasi bilan boshqa tillardan alohidalanadi va ajralib turadi. Siz ham bu so'zning asl ma'nosiga qiziqayotganingizni inobatga olgan holda, biz uning o'zbek tili izohli lug'atida berilgan izohini keltirib o'tamiz. "odamlardan o'zini chetga olib yuradigan hech kimga qo'shilmaydigan, el-xalqqa aralashmaydigan" kishi xarakterini bildiradi. *Rajab bolalikdan kamgap, odamovi bo'lib chiqdi.* (H.Nazir, Indamas) . Boshqa e'tiborimizni tortadigan bahuvihi ham borki, u insonga xos bo'lgan xarakterni bildiradi. Masalan, "**soddadil**" bu attributiv qo'shma so'z o'ziga xos ma'no va mazmunga egadir: "(f – ochiq ko'ngilli, ishonuvchan; go'l, laqma) quvlik – shumlikni bilmaydigan, ko'ngli ochiq, ko'ngli toza, sofdil" . Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, 'dil' bu qalb, ko'ngil, yurak kabi ma'nolarni bildiradi. Bu qo'shma so'zda esa dili, qalbi beg'ubor, sof va toza, ayni paytda shumlik neligini bilmaydigan, o'ta ketgan darajada sodda bo'lgan insonni anglatadi. Misol uchun, **soddadil** yigit. Keyingi so'zimiz esa unga butkul qarama qarshi mazmunda keluvchi "**tilyog'lama**" qo'shma so'zidir. Uning izohi quyidagicha: (29)

"1. Munofiqona xushmuomalalik, shirinso'zlik bilan kishining ko'nglini olishga qaratilgan, aldovchi; laqillatuvchi (gap, so'z, muomala haqida)

Direktorning tilyog'lama gaplari Maqsud akani bo'shashtirdi. (Gazetadan) 2. shunday muomalani kasb qilib olgan shaxs -Men **tilyog'lama** odamni yomon

ko‘raman! – dedi Alijon Faridaga. (Mirmuxsin) Bu qo‘shma so‘zning birinchi ma‘nosi narsaga qaratilgan va uning ma‘nosini ochib bergan bo‘lsa, ikkinchi misolda u ma‘no shaxsning xarakterini aniqlab, unga oydinlik kritgan. Bir qarashda ‘til’ va ‘yog‘lamoq’ so‘zlari orasida mantiqiy jihatdan bog‘liqlik yo‘qdek bo‘lib ko‘rinadi, lekin o‘zingiz misollarda guvohi bo‘lganingizdek, ular qo‘shilib bitta qo‘shma so‘z hosil qilgan. Biz uning ma‘nosini ‘tilida yog‘i bor’ boshqacha aytganda yumshoqlik, ayyorlik va shirin so‘z bilan odamlarni laqillatuvchi odam deya aytishimiz mumkin. Biz tez- tez kundalik nutqimizda qo‘llaydigan ba‘zi so‘zlarning qismlari angaltgan asl ma‘noni tushunmaymiz va ular ham o‘z o‘rnida tushunarsiz. Negaki, misol uchun, **valakisalang**” qo‘shma so‘zlarining ma‘nosi anglashiladi, ammo uning qismlari anglatadigan ma‘no sirligicha qoladi. Masalan, valakisalang so‘zi “o‘ta ketgan beg‘am, beparvo; ishyoqmas; xumpar, devona” degan ma‘noni anglatadi, biroq valak va salang so‘zlarining asl ma‘nolari bizga qorong‘u. Bundan tashqari, xushchaqchaq so‘zining bir negizini ‘xush’ so‘zining ma‘nosini yaxshi bilamiz, ammo ‘chaqchaq’ qanday mazmundagi so‘z ekanligini bilmaymiz. Shunga qaramay izohli lug‘atimizda unga quyidagicha ta’rif berilgan: “1. hayotdan mamnun; doimo xursand bo‘lib yuradigan, 2. quvnoq, shod-xurram”. Keling endi bu qo‘shma so‘zlar bilan tuzilgan misollarga to‘xtalamiz: *Rais ... qirq besh-elliklar chamasidagi to‘lagina, xushchaqchaq kishi edi. (N.Fozilov, Diydor)* *Telefondagi xushchaqchaq gap tugagandan keyin, bu yerda halidan beri davom etayotgan suhbat birdan ma‘nosiz bo‘lib tuyuladi. (Muxtor, Bo‘ronlarda bordek halovat) (Abdurayim)* *Ko‘zdan qoldingmi, valakisalang, kolxozimizning bo‘rdoqiga boqilgan oldi qo‘ylari-ku! (Mushtum).* Qo‘shimcha sifatida boshqa qo‘shma so‘zlarga ham ta’rif keltiramiz. Ularning ma‘nosi bir biriga yaqin va ular o‘zaro ma‘nodosh deb hisoblanilishi ham mumkin. Masalan, “**xudobezor(i), xudobexabar** “. “(Xudodan qochuvchi, betavfiq) har qanday yomon harakatdan ham qaytmaydigan; o‘ta dilozor betavfiq.” degan ma‘noni xudobezor(i) so‘zi bersa, xudobexabar so‘zining ta’rifi quyidagicha “(xudodan xabarsiz, betavfiq) Xudodan qo‘rqmaydigan; dinsiz; insofsiz, diyonatsiz betavfiq”. -*Bu bezbetni qayerdan topdingiz, xudobezori-ku u? – dedi Soliyev o‘rnidan turib. (Yoshlik); Shu*

xudobexabar amir eshigida amaldor bo'lishdan ko'ra, o'g'irlik qilib yurish ming marta a'lo. (S.Ayniy, Jallodlar) O'z o'rnida yana boshqa bir qo'shma so'z, "**xudoyixo'r**" so'ziga izoh beramiz. "(xudoyi+yeyuvchi) Xudoyiga borib ovqatlanishni odat qilib olgan kishi". Madrasamizning "jilvaxona"sida har yakshanba va payshanba kunlari **xudoyixo'rlar** ko'cha poylab, tikilib o'tirar edi. (M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari) Misolda guvohi bo'lganimizdek, oddiy xalqqa hali noma'lum bo'lgan qo'shma so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu jumladan, "**cho'rtkesar va shartkesar**" qo'shma so'zlariga to'xtalsak. Bir qarashda ularning ma'nolari birdek go'yo, ammo aytish joiz bo'lgan farqlar mavjud. Misol uchun, cho'rtkesar odam suhbatdoshining nutqini bemalol kesib, o'zining gapini gapiradi, lekin shatkesar odam dangal va dadil gapiradi va unda shartakilik xususiyati deyarli yo'q. Bu fikrlarga mazkur so'zlarning ta'rifini eshitib o'zingiz ham guvohi bo'lasiz. Cho'rtkesar - "shartta gapiradigan, aytadigan", shartkesar - "dangal gapiradigan; dangalchi, sharti bilan gapirmoq agar sen bunday qilsang men bunday qilaman" degan ma'nolarni anglatadi. *Men tog'amning haqgo'y, talabchan, o'rni kelganda cho'rtkesar odamligini ilgari bilardim.* ("Sharq yulduzi") **Shartkesar** odam. Agar "**shumqadam** va **shumoyoq**" qo'shma so'zlariga izoh beradigan bo'lsak, ular deyarli bir xil ma'no va mazmun kasb etadi, ayni paytda bir xil ma'no anglatish uchun ishlatiladi. Keling ularga izohli lug'atimizda berilgan ta'rif bilan tanishsak: shumoyoq- "poyqadami biror shikastlikka, yomonlikka sabab bo'luvchi, falokat, baxtsizlik keltiruvchi"; shumqadam - "ayni shumoyoq". *Gul, rayxonga to'lgan qirg'og'ing, Shumoyoqlar makoni bo'ldi. Fashist degan odamxo'r jallod, Sohilingdan joy oldi, toldi.* (G'ayraty). Yuqoridagi misolimizda 'shumoyoqlar' qo'shma so'zi ostida aslida, 'shumoyoqli odamlar' yotibdi, o'z o'rnida bu misolda mazkur qo'shma so'zimiz otlashib kelgan. (30)

2.2.1 Inson xarakterining nozik qirralarini ochib beruvchi bahuvrihilar.

Biz yuqorida shaxsga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarini anglatadigan o'zbek tilidagi 120 ta bahuvrihilar bilan astoyidil tanishib chiqdik. Shuning natijasida yaratilmishlarning ichida g'oyat buyuk zot bo'lmish insonga xos va mos bo'lgan fazilatlar-u , illatlarga bafurja to'xtalib, ularni ham baholi qudrat tahlil qilishga harakat qildik. Quyidagi bo'limda esa ularga kengroq izohlar beramiz. Inson umri davomida ikki nafsning ya'ni hayvoniy va shahvoniy nafsning taqozosi bilan yashaydi va shu nafsni qondirish niyatida bo'ladi va bu hammaga xos narsa. Ammo ayrim odamlar borki, ularning nafsni chegaradan oshib ketadi, buning natijasida ular o'zlarining insoniy qiyofasini butkul yo'qotib, hayvoniy nafsning quliga aylanishadi; o'zlari ham, nafsni ham hayvonnidek bo'lib qoladi va bu kishilarga xalqimiz ajralib turuvchi xususiyatlariga qarab ularga nom qo'yishadi. Shu tariqa nomlar vujudga keladi. Biz quyida sizga tahlilini aytmoqchi bo'lgan qo'shma so'zlar ham shu asnoda vujudga kelgani tabiiy. Ularning qatoriga '*ajdarnafs, badnafs, yebto'ymas, xunxo'r, etxo'r, odamkush, qonxo'r*' kabi bahuvrihilarni kiritishimiz mumkin. Nainki bu qo'shma so'zlarda insonning nafsni hayvonnikiga qiyos qilinmoqda.

Endi insonlarning ijobiy xarakterlari orqali nomlanishiga to'xtaladigan bo'lsak. Ayrim odamlar o'z so'zi, xatti-harakati, o'tirish turishi, o'zgalarga munosabati bilan ijobiy tomondan ajralib turadilar. Ularning odati tevarak atrofdagi odamlar tomonidan ma'qul ko'riladi. Unday odamlar bilan har bir kishining qayta-qayta uchrashgisi, ko'rgisi, gaplashgisi, uning har bir gapini tinglagisi keladi. Bunday insonga xos bo'lgan xarakter tipini ifoda etuvchi bahuvrihilar ham mavjud. Ularga : "*bulbulnavo, otashzabon, juvonmard, jonfido, jonkuyar, jahonbaxsh, kamsuqum, kamgap, mehmondo'st, nekbin, nekqadam, oliyhimmat, sobitqadam, xushtakalluf, xushfe'l, xushchaqchaq, xushxulq, xushovoz, xushtabassum, sertavoze, sertakalluf, xushatvor, xushaxloq, xushgap, xushdil, xushmulozim, xushmuomala, xushnavo, xushtavoze, xushtabiat, xushsuhbat, shirinsuxan, shirinso'z, hamgap, hamdo'st, hamdil, hojatbaror, hamfikir, hamxona, ichkuyar, rahmdil*" kabilar misol bo'la oladi. Mazkur bahuvrihilar asosan fors va

arab tillaridan tilimizga kirib kelgan o'zlashmalar asosida yasalgan bo'lib, aniqlovchi komponentlar 'xush'(ma'qul), 'nek'(yaxshi), 'kam'(suhbatdoshlarga halaqit bermasligi ma'nosida) qo'llanilib, ijobiy ma'nodagi bahuvrihilar yasallishiga zamin yaratgan.

Zamondoshlarini hurmat qilmaydigan, sabrsiz, bezzat, qilayotgan ishining oqibatini o'ylamaydigan, suhbatdoshining ko'ngli bilan qiziqmaydigan va o'zgalar fikrini inobatga olmaydigan, hurmatini joyiga qo'ymaydigan kishilarning xulq-atvori va xarakterini ifodalab keladigan ko'plab bahuvrihilar misollar keltiramiz. Ular quyidagicha: “ *betgachopar, banginamo, balandparvoz, badhavo, badxulq, badfe'l, badrashk, badmast, badkor, badkirdor, ishbuzuqi, onaxotin, oyimtilla, oyimsupurgi, orabuzar, tartibbuzar, tilyog'lama, xudobezor(i), xudobexabar, xudotars, xushyoqmas, cho'rtkesar, shartkesar, shumqadam, yakkamoxov, o'yinbuzuqi, o'zbilarmon, o'zboshimcha, badniyat, yo'lto'sar, padarkush, pashshaxo'rda, badnafas, buzuqbosh, yelpishtovoq, ikkiyuzlama, ikkiyuzlamachi ko'zbo'yamachi, shumoyoq, hurmattalab.*

Bahuvrihilar ichida yana shundaylar borki, ular turmushimiz tarzi, hayotiy lavhalar, muhit, vaziyat taqozosiga qarab ish ko'rmaydilar, aksincha o'z fikri hayoli bilan bo'lib, ko'zlagan maqsadini amalga oshirish yoki nafsoniyatini qondirish bilan mashg'ul bo'ladi. Bundaylarga: “*araqxo'r, boqibeg'am, balandparvoz, badxulq, badjahl, badgumon, badaxloq, valakisalang, gapsotar, dilsiyoh, damduz kiritish mumkin.* Ayrim kishilar tabiatan va aqlan ojiz bo'lib, obyektiv borliq mushohadasida qiynalishadi, ularni xalqimiz kamfahm, kaltafahm, kamhafsala, kallavaram og'irkarvon,, kabi bahuvrihilar bilan nomlashgan. Ayrim kishilar esa tabiatan yalqov, ular o'z navbatida: ishyoqmas, salqintob deb ataladilar. *Ayrim shaxslarga esa tabiat shunday in'omlar berganki, ular hayot va uni idrok qilish qobiliyatini bergan. Bularga :nuktadon, nuktafahm, nozikfahm, nozikta'b, kabilardir.*

2.2.2. Insonning tashqi ko‘rinishini va ichki hislarini tasvirlovchi tarkibida tana a’zolarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan bahuvrihilar.

Biz bahuvrihilarni guruhlariga ajratish mobaynida ko‘plab ikkilanishlarga duch keldik, shunday bo‘lsa ham insonning mayda xususiyatidan tortib, uni ulug‘laydigan belgilarigacha ifodalaydigan bahuvrihilar mavjudligiga amin bo‘ldik. Shu ma’noda insonning tevarak- atrofdagilarga munosabati, kayfiyati, tashqi ko‘rinishi va hattoki tana a’zolarini bildiruvchi so‘zlardan yasalgan bahuvrihilarning tilimizda uzoq vaqtlardan beri mavjudligiga ishonch hosil qildik va shundan kelib chiqqan holda o‘zbek tilining izohli lug‘atidan tarkibida tana a’zolarini anglatuvchi so‘zlar qatnashgan 110ta bahuvrihilarni topishga muvaffaq bo‘ldik. Quyida ularning hammasini keltirib o‘tamiz: *badnafas, banginusxa, badhaybat, badsurat, badnusxa, badburush, badbashara, badzabon, badro‘y, badchehra, badqovoq, baliqko‘z, bangibashara, bodomqovoq, bo‘taloqko‘z, bo‘tako‘z, bug‘doyrang, buzuqbosh, gulchiroy, gulandom, guljabin, gulbadan, gulrux, gulchehra, gulyuz, gulro‘, guluzor, devqomat, do‘ngpeshona, yelpishtovoq, yolg‘izoyoq, yolg‘izqo‘l, yaltirbosh, yalangto‘sh, yakkabosh, jayron ko‘z, jigarso‘xta, jagarpora, jigarband, jigargo‘sha, zeboqad, zag‘chako‘z, ikkiyuzlama, ikkiyuzlamachi, ikkiqat, ichkuyar, kamgo‘sh, ko‘zbo‘yamachi, kalondimog‘, kamsoqol, kamsuhan, kampirdahan, kaltadum, kallaxum, noziknihol, oyparcha, otashzabon, og‘iroyoq, oqmiya(eshakmiya), ochko‘z, otashqalb, oftobro‘y(a), olako‘z, oyoqyalang, oqsoqol, oqsuyak, otashnafas, parichehra, pariruxsor, pariyo‘(y), qoramag‘iz, qizilmag‘iz, qushburun, quvbosh, qoqvosh, qirraburun, qalamqosh, rahmdil, sarviravon, sarvinoz, sersavlat, so‘qqabosh, sarvqad, sarvqomat, sohibjamol, sertomir, sersoqol, serkiprik, sertomoq, tanqaburun, tepakal, toshbag‘ir, xomsemiz, xushsurat, xushbichim, xushtabassum, xumbosh, xumor ko‘z (yoki ko‘zlari xumor), xushmo‘ylov, xushro‘y, xushqomat, shumoyoq, shalpangquloq, chakkazarb, chapdast, chalishoyoq* kabilardir.(27-30) Tan olib aytish kerakki yuqoridagi keltirilgan bahuvrihilarning ko‘pchiligi o‘zining beqiyos ma’nosiga ega. Misol uchun, ‘*badhaybat, badsurat, badnusxa, badburush, badbashara, badro‘y, badchehra,*

badqovoq, baliqko‘z, bangibashara, bodomqovoq, bo‘taloqko‘z, bo‘tako‘z, bug‘doyrang, gulbadan, gulchehra, guljabin, gulyuz, gulro‘, guluzor, devqomat, do‘ngpeshona, yelpishtovoq, yaltirbosh, jayron ko‘z, zeboqad, zag‘chako‘z, kallaxum, kamgo‘sh, kamsqol, kampirdahan, noziknihol, oyparcha, oftobro‘y(a), olako‘z, oqsqol, parichehra, pariruxsor, pariyo‘(y), qoramag‘iz, qizilmag‘iz, qushburun, qoqvosh, qirraborun, qalamqosh, sersavlat, sarvqad, sarvqomat, sohibjamol, sertomir, sersqol, serkiprik, tanqaborun, tepakal, xomsemiz, xushsurat, xushbichim, xushtabassum, xumbosh, xumor ko‘z (yoki ko‘zlari xumor), xushmo‘ylov, xushro‘y, xushqomat, shalpanquloq” kabi bahuvrihilar insonning tashqi ko‘rinishi qanday ekanligini o‘xshatishlar orqali tasvirlab keladi.

Navbatdagi biz izoh bermoqchi bo‘lgan bahuvrihilar esa insonning ichki holati va hislarini ifodalab keladi. Misol uchun: “*badnafas, buzuqbosh, yelpishtovoq, yolg‘izoyoq, yolg‘izqo‘l, yalangto‘sh, yakkabosh, jigarsa‘xta, jigarpora, ikkiyuzlama, ikkiyuzlamachi, ikkiqat, ichkuyar, ko‘zbo‘yamachi, kalondimog‘, kamsuhan, otashzabon, og‘iroyoq, oqmiya(eshakmiya), ochko‘z, otashqalb, oyoqyalang, otashnafas, quvbosh, qoqvosh, rahmdil, sarviravon, sarvinoz, so‘qqabosh, toshbag‘ir, xumbosh, shumoyoq, chakkazarb, chapdast, chalishoyoq* kabi qo‘shma so‘zlardir. Tagiga chizib ajratilgan qo‘shma har ikkala guruhga mansub, negaki uning ma’nolari shuni tasdiqlaydi. Masalan, “**xumbosh, xumkalla**” so‘zlariga izohli lug‘atimizda “Ayn. Xumkalla (xum kabi katta bosh) 1. boshi xumday, kallasi katta, kallador; 2. miyasi yo‘q, kallavaram, qovoqbosh” deya izoh berib o‘tilgan. Demak bu qo‘shma so‘zni har ikkala guruhga kiritishimizga yetarlicha asosimiz bor, chunki u birinchi ma’noda insonning tashqi qiyofasini ifodalayotgan bo‘lsa, ikkinchi izohda uning ichki holatini bildirib kelgan. Bunga misollarda ham guvohi bo‘lishingiz mumkin. *Ahmad brigadir ... **xumkalla** o‘g‘ilchasiga kissasidan mayiz olib berdi.*(S. Nurov, *Maysalarni ayoz urmaydi*); ***Xumkalla!** Shariat yo‘lidan toygan qizning so‘ziga ishonasanmi?* (Oybek, *Tanlangan asarlar*).

Bizning xalqimiz bolajon xalq hisoblanadi. Shundan kelib chiqib o‘z farzandlariga biror bir ma’no anglatadigan ism qo‘yishadi. Biz topgan

bahuvrihilarining bir qanchasi xalqimiz orasida qizlar ismi sifatida qo'llaniladi. Ularga : “*Gulchiroy, Gulandom, Gulbadan, Gulchehra, Gulrux, Gulyuz, Gulruxsor, Sarvinoz* kabilar misol bo‘la oladi. Masalan, ‘Gulchiroy’ ismi ‘Gulchehra’ ismi bilan bir xil ma’noni bildiradi ya’ni “(gul+chehra)1.gul yuzli, chiroyli go‘zal”; ‘Gulandom va Gulbadan ismlarining ham ma’nolari bir xil ya’ni “(gul+andom)

qaddi qomati kelishgan nozik badan (go‘zal ayol haqida) ; (gul+badan) ayn gulandom” kabi.

Bundan tashqari, shaxsning mavqei, tabaqasini anglatadigan “**oqsuyak, oqsoqol**” kabi bahuvrihilarimiz ham bor. “Ekspluatatorlik jamiyatida imtiyozli tabaqalarga zodagonlarga mansub kishi; aristokrat” ; “1. soch soqoli oqargan keksa odam; mo‘ysafid, 2. tar. Ilgarigi davrda bir yoki bir necha mahalla yoki qishloqqa boshliq bo‘lgan mahalliy amaldor, 3. hozirgi kunda qishloq fuqarolar yig‘inlari va shaharlar mahalla qo‘mitalari raisi.4. ko‘chma guruh yoki sinf boshlig‘i” degan ma’nolarda keladi. O‘z o‘rnida bir narsani ta’kidlash joizki, ‘oqsoqol’ so‘zi nafaqat shaxning yoshi, mavqeini balki uning tashqi ko‘rinishini ham anglatadi. Yuqoridagi misollarda bunga yetarlicha izohlar berilgan. Shuningdek, “**jigarband va jigargo‘sha**” bahuvrihilari ham o‘zining ichiga tana a‘zolarini ifodalovchi so‘z(jigar)ni oladi. Lekin uning mazmuni boshqa bir yangi ma’noni ifodalab keladi. Misol uchun, jigarband so‘zi “jigarining bir bandi ya’ni qismi yoki jigariga bandi qilingan” degan ma’noni berishi mumkin. Albatta insonga ota- onaga ang yaqin kishi bu uning farzandi hisoblanadi. Shu ma’noda farzand ota-onaning jigarini bandi qilgan kishi , shaxs hisoblanadi. “(farzand yaqin kishi) Eng yaqin, bir tug‘ishgan qarindosh (farzand, aka-uka, opa-singil)” **Jigarbandlari** yo‘lida ko‘zlari nigoron bo‘lgan onalar otasiz o‘ksib o‘sgan o‘g‘il-qizlar, farzand dog‘ida yurak – bag‘ri qon otalar hozir ham ozmi?(N.Safarov, Olovli izlar). Mo‘min **jigargo‘sham**, salomat keldingmi?(Uyg‘un va I.Sulton, A.Navoiy).

2.2.3. Insonning tevarak atrofdagilarga bo'lgan munosabati va kayfiyatini anglatuvchi bahuvrihilar.

Oldingi faslda aytib o'tganimizdek bahuvrihilarni ma'no va mazmuniga qarab guruhlarga ajratdik va har biriga iloji boricha to'g'ri izoh berishga harakat qilayapmiz. Shu jumladan, insonning xarakter xususiyatlarini, tashqi ko'rinishini, ichki dunyosini, dunyoqarashi, fazilatlarini ifoda etish xususiyatiga ega bo'lgan bahuvrihilar haqida to'xtalgan edik. Shuni ta'kidlash kerakki, bahuvrihilarning safiga kiruvchi insonning umumiy belgilari, jumladan uning tevarak atrofdagilarga bo'lgan samimiy yoki nosamimiy munosabati, ishda, uyda, o'qish jarayonida, ko'chada, do'stlar davrasida o'zini tutishiga qarab va qolaversa, kayfiyatiga qarab ham guruhladi va jami tevarak atrofdagilarga munosabati bo'yicha topilgan 42ta bahuvrihini e'tiboringizga havola etamiz: *aspijallob, alamdida, alamzada, badxat, badniyat, vatangado, gulyetim, davlatpanoh, jafodiyda, jabrdiyda, jahondiyda, zarxarid, yigitboshi, yakkaqo'l, yo'lto'sar, kosagul, ko'zbog'lovchi, kallakesar, ocharvoh, otabezori, odamkush, padarkush, pashshaxo'rda, peshqadam, qasamxo'r, qonxo'r, supraqoqdi, toshteshar, xotin jallob, xushxat, xilvatnishin, xonaqoxnishin, chalamulla, chalasavod, chalaqursoq, hamdil, hojatbaror, hamshahar, hamshisha, hamsuhbat, hamtovoq, hamfikir, hamxona, hamyostiql. Inson kayfiyatini anglatadigan 23ta bahuvrihilar, jumladan: *dilshikast(a), dilxush, dilxun, dilxasta, dilpora, diltang, dilg'ash, dilshod, yurakzada, yakdil, kamquvvat, oshiftahol, parishonxotir, uyqutob, falokatzada, xayolparishon, xastahol, xafahol, xotirjam, xushxandon, g'amzada, shirindimog', hijronzada* larni topishga muyassar bo'ldik. (27-30) Shu o'rinda "xo'rdan" fe'lli negizdan yasalgan qo'shma so'zlarga to'xtalsak: *bo'zaxo'r, baloxo'r, etxo'r, yuvindixo'r, kabobxo'r, maoshxo'r, nafaqaxo'r, norinxo'r, oshxo'r, odamxo'r, ontxo'r, poraxo'r, qaymoqxo'r, qasamxo'r, qimizxo'r, qonxo'r, sharobxo'r, chakidaxo'r, haromxo'r, halolxo'r* kabilar 'xo'r' negizidan yasalgan, ammo ular bir biridan ma'no jihatidan farq qiladi. Masalan, **'bo'zaxo'r va baloxo'r'** qo'shma so'zlarining o'rtasida katta farq borligini sezish qiyin emas, chunki bo'zaxo'r- "bo'za ichuvchi odamni bildirsa, baloxo'r- "(balo+yeyuvchi) birovning haqini yeyuvchi,*

tekintomoq” shaxsni ifodalab keladi. Shu o‘rinda “odamxo‘r, qonxo‘r” bahuviyihilari ham bir biriga ma’no jihatidan juda yaqin, jumladan biz hayvoniy nafs egalariga yuqorida yetarlicha to‘xtalgan edik, ammo ‘odamxo‘r va qonxo‘r’lik sifatlari ham bevosita hayvonga xosdir; “ontxo‘r, qasamxo‘r” so‘zlari ham sinonimlardir. Quyidagi misollarda ‘xo‘rdan’ fe’li o‘zining sof ma’nosida kelgan qo‘shma so‘zlar: “bo‘zaxo‘r, etxo‘r, kabobxo‘r, norinxo‘r, oshxo‘r, qaymoqxo‘r, qimizxo‘r, sharobxo‘r, chakidaxo‘r” kabilardir, chunki ularning tarkibidagi “xo‘rdan” fe’lidan yasalgan xo‘r so‘zi o‘zining “yemoq, ichmoq” degan ma’nosini saqlab qolgan; bo‘za, sharob, qimizni ichish mumkin, kabob, et, norin, osh, qaymoqlarni yeyish yoki iste’mol qilish mumkin. Shu ma’noda qolgan xo‘r negizli bahuviyihilar ko‘chma ma’noni ifodalaydi: “ baloxo‘r, maoshxo‘r, nafaqaxo‘r, ontxo‘r, qasamxo‘r, poraxo‘r, halolxo‘r va haromxo‘r” kabilar. Misol uchun, baloni yeb bo‘lmaydi, maosh va nafaqa puliga biror yegulik sotib olib iste’mol qilish mumkin, lekin nafaqa va maoshga kelgan pulning o‘zini bevosita iste’mol qila olmaymiz; “halolxo‘r va haromxo‘r” so‘zlari ham shunday tahlil qilinishi lozim, lekin bu misollarda: halolxo‘r- peshona teri evaziga halol mehnat qilib topgan haqiga kun ko‘ruvchi odam tushuniladi; haromxo‘r esa butunlay uning teskarisi ya’ni qing‘ir yo‘llar bilan pul topib, birovning haqqiga hiyonat qilib, harom yo‘l bilan topilgan nonni yeb kun kechiradigan odamdir. Qolaversa, bir biri bilan sinonim bo‘lgan ‘ontxo‘r va qasamxo‘r’ so‘zlari ham xo‘r negizining ko‘chma ma’no ifodalab kelayotganligini bildiradi, negaki ont va qasamni piyolaga solib ichib bo‘lmaydi. Ontxo‘r- ontni ko‘p ichadigan odam, qasamxo‘r ham. (10;56)

Bundan tashqari “ *alamdiyda, alamzada, jafodiyda, jabrdiyda*” kabi qo‘shma so‘zlar atrofida yashovchi zamondoshlaridan jabr , sitam, alam ko‘rgan kishining ichki kechinmalarini ifodalaydi, ayni paytda hayotdan yoki do‘st yorlaridan alamzadligini bildiradi, jumladan ‘alamzada’. Bizga sir emaski, ‘diyda’ so‘zi ‘ko‘z va ko‘rmoq’ ma’nolarida ko‘p qo‘llaniladi. Yuqorida biz keltirgan misolda alamdiyda qo‘shma so‘zi ‘atrofdagilardan, hayotdan alam ko‘rgan kishiga nisbatlab aytilgan; jafodiyda esa ‘jaf’ ko‘rgan kishi; jabrdiyda esa ‘jabr’ ko‘rgan

ma'nosida qo'llanilgan. Endi 'pashshaxo'rda' qo'shma so'ziga izoh bersak; bu so'z : (f pashsha yegan talagan; pashsha chaqqandan keyin uzoq tuzalmaydigan yara, jarohat) biror joyga tez-tez kelib turadigan xira bo'lib yopishib oladigan odam." ma'nosini anglatadi. ***Pashshaxo'rda bo'lmoq. Pashshaxo'rdalarni quvib, polvonning jilovini tortib qo'lasan.*** (O.Yoqubov, Larza)

Sir emaski, bahuvihi anglatadigan ma'no oldin o'zining sof ma'nosida, so'ngra shaxsga ko'chib, ko'chma ma'noda keladi. Misol uchun hammamiz uchun juda ham yaxshi tanish bo'lgan 'supraqoqdi' qo'shma so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, u izohli lug'atimizda "1.katta ziyofat, to'y va sh. k dan keyin qolgan narsalar bilan kichik doiradagi yaqin kishilarni mehmon qilish va shunday mehmondorchilikning o'zi 2.ko'chma eng kichik, kench(farzand haqida)" degan shaklda berilgan. Keling misollar bilan tanishsak: "*Mo'minboy – uning supraqoqdisi, ellikka kirganda ko'rgan farzandi.*" ("Yoshlik"). Shuningdek, 'xotin jallob' so'ziga yuzlansak, u 'Xotin olib xotin qo'yuvchi" *Bu ham (Murod) otasiga o'xshash xotin jallob chiqdi, - dedi Lazokat buvi.* (A. Ubaydullayev, Hayot oqimi)

"Hojatbaror" so'zi esa "(a+f kimsaning hojatini chiqaruvchi, ravo qiluvchi, maj: olloh, xudo) kishining hojatini chiqaruvchi" deganidir. *Qishloqning to'y-u marakasi usiz o'tmas, yor-do'stlarning xizmatiga tayyor, jafokash, hojatbaror odam edi.* (H.Nazir, Vasiyat).

"Hamshisha" – '(ham+shisha) biror kimsa bilan ichkilik ichuvchi, ichkilikbozlikdagi ulfat, shishadosh'. *Muhammadjon domla bilan hamshisha bo'lganlari esiga tushsa, otasi o'g'irlikda ayblangan yosh boladay nam tortar edi.* (Gazetadan).

(ham+xona) 1. bir xonada yashovchi, birga turuvchi.' *Uning odatdan tashqari shod ekanini ko'rib turgan hamxonalari hazilomuz gap tashlashdi.* (P.Qodirov, Uch ildiz)2. ko'chma poet. G'am, azob kabi kechinmalarga duchor, giriftor.

Bir necha kunlardan beri ko'rmay visoling, ey pari,

Turli balo, ming g'am bilan

Hamxona bo'ldim sog'inib. (27-30)

(Hamza)

2.3. Ingliz tilida “bahuvrihi”lar va ularning morfologik, semantik xususiyatlari

Yuqoridagi bobda to‘xtalganimizdek, inglizlar qo‘shma so‘zlar sohasida ko‘plab izlanishlar qilishgan va qo‘shma so‘zlarni morfologik va semantik jihatdan bir necha guruhlarga ajratgan holda o‘rganishgan. Shunga ko‘ra 4 ta turdagi qo‘shma so‘z tiplari aniqlangan, jumladan

- 1.Endosentrik
- 2.Ekzosentrik(shuningdek “bahuvrihi”)
- 3.Kopulativ (shuningdek “dvanda”)
- 4.Appozitiv kabilardir.

Atish kerakki, har bir guruhga kiruvchi qo‘shma so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, endosentrik qo‘shma so‘zlar aniqlovchili qo‘shma so‘zlar hisoblansa, kopulativ qo‘shma so‘zlarning har bir ma’no anglatuvchi qismi o‘zi bildiradigan mazmundan chekinmagan holda, uchunchi bir narsa yoki shaxsni ifodalaydi. O‘z o‘rnida appozitiv qo‘shma so‘zlar esa qismlari mazmun jihatdan bir briga qarshi bo‘lgan, lekin bir narsa yoki hodisani bildirib keladigan qo‘shma so‘zlar hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, ekzosentrik qo‘shma so‘z tipi bu – bahuvrihidir. Bunday qo‘shma so‘zlar sanskrit tilida “bahuvrihi” atamasi bilan qo‘llaniladi va ma’no jihatdan “ ko‘p guruch” deganidir .Bu yerda guruchning o‘zi emas, balki shu guruchga egalik qiluvchi odam tushuniladi, boshqa so‘z bilan aytganda bu yerda ma’no ko‘chishi ro‘y berib, u “ko‘p guruchli odam” ma’nosini bildiradi. Ingliz tilida ham tuzilish va ma’no jihatdan qo‘shma so‘zlar shunday ko‘rinishda bo‘ladi. Ta’rif beradigan bo‘lsak bu turdagi qo‘shma so‘zlar ikkita so‘z negizdan tashkil topadi lekin bu negizlar ikkalasi birgalikda boshqa bir semantik birlikni anglatadi. Ulardan hech biri ko‘pchilik hollarda to‘laligicha o‘z ma’nosida kelmaydi va ulardan ma’no anglashila olmaydi. Misol tariqasida, **white-collar** ya’ni ‘oq yoqa’ ma’nosini bildiruvchi bu so‘z oddiygina ko‘ylak yoqasini, narsani bildirib turgani yo‘q, aksincha ‘oq yoqali odam’(yoqaning rangi ijtimoiy iqtisodiy mavqe uchun metonimiyadir)ni anglatayapti. Bu misolda ma’no

narsadan bevosita shaxsga ko‘chgan. Bahuvruhining tabiati murakkab hisoblanib, uni hech qanday so‘z ochib bera olmaydi. Boshqa yana bir misol keltirsak, **“barefoot”**- oyoqyalang. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda birinchi ma’no “oyog‘ida hech narsa kiyib olmagan odam” tushunilsa, keyingi ma’no esa ko‘chma “kambag‘al odamni” ifodalab kelgan. Biz ham o‘zbek tilida bu so‘z haqida o‘ziga yarasha ma’lumotga egamiz va nutqimizda ham qo‘llaymiz. Misol uchun, **“couchpotato”** so‘zini odamga nisbatan televizor ko‘rishga mukkasidan ketgan ma’nosida qo‘llash mumkin, chunki kartoshka poyasi qanchalik uzoq yerda ko‘milib tursa, shunchalik chuqur ildiz tashlaydi, demak televizor ko‘rishga mukkasidan ketgan odam kartoshkaga o‘xshatilayapti. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosini izohli lug‘atda sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarmay, nuqul vaqtini televizor tomosha qilib o‘tkazadigan odam deb berilgan. Ekzosentrik qo‘shma so‘zlar ingliz tilida kam uchrasa ham nutqda qo‘llaniladi. Bunday qo‘shma so‘zlardan anglashilayotgan narsa va hodisa so‘z ma’nosi bilan juz’iy bog‘liq bo‘lsada aynan shu so‘zlar anglatgan ma’nolarga uzviy aloqasi bo‘lmaydi. Bu ta’rif hech qanday e’tirozlarsiz ikkala o‘zbek va ingliz tillaridagi attributiv qo‘shma so‘zlar uchun umumiy deb olinishi mumkin, chunki ular orasidagi o‘xshashlikni anglash qiyin emas. Misol uchun, ingliz tilidagi **“egghead”** qo‘shma so‘zini olsak, u tuxum shaklidagi boshni emas, balki umuman boshqa ma’noni ya’ni judayam zehni o‘tkir shaxsni ifodalab kelmoqda. Yoki **“longlegs”** so‘ziga murojaat qiladigan bo‘lsak, u ‘uzun oyoqli odamni emas, balki kriket o‘yinida to‘p oshiruvchining orqa tomonida turadigan o‘yinchi’ ma’nosini ochib bergan. Shu o‘rinda o‘zbek tiliga to‘xtaladigan bo‘lsak, bunday misollarni ko‘p uchratishimiz mumkin. Fikrimning isboti sifatida “xumkalla” so‘ziga izoh bersak, bu yerda kallasi xumga o‘xshagan odamni va albatta, asosan “miyasi yo‘q, kallavaram, qovoqbosh ya’ni esi pastroq odamni tushunamiz. Yoki bo‘lmasam “qovoqbosh” soziga ta’rif bersak, lug‘at tarkibiga kiritilmagan bo‘lsa ham kundalik nutqimizda ko‘p qo‘llaymiz, qaysi ma’nodaki boshining o‘rnida xuddi qovoq turgandek, miyasi ishlamaydigan, bo‘m bo‘sh sifatida. (19;211)

Ingliz tilida bahuvrihilarining oxirgi komponenti odatda ot bilan tugaydi, ammo qo'shma so'zning o'zi ot yoki sifatni bildirishi mumkin. Urg'u esa so'zning birinchi komponentiga tushadi. Ingli tilida ham bahuvrihilar shaxsning belgilarinini sinekdoxa orqali tasvirlaydi. Misol uchun, ***flatfoot, half-wit, highbrow, lowlife, redhead, tenderfoot, longlegs, white-collar, houndstooth*** a woven fabric with a patterns resembling dog's teeth: "She's wearing ***houndstooth***." ya'ni 'hound' so'zini o'zbek tiliga 'tozi it' deb tarjima qilinadi; 'tooth' 'tish' deb tarjima qilinadi va "tozi itning tishi" degan ma'noni bildiradi, ammo bu misolimizda u " tozi itning tishiga o'xshash naqsh tushirilib to'qilgan mato" degan mazmunda kelgan. "She is wearing houndstooth" esa " u tozi itning tishini emas balki shunga o'xshash naqsh tushirilgan matodan tikilgan ko'ylak kiyib olgan" deb tarjima qilinadi. Guvohi bo'lganingizdek ,qo'shma so'z komponentlari yangi ma'no anglatishga xizmat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ingliz tilida bahuvrihilar faqat shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni emas, balki jonsiz narsalarni ham bildiradi. Boshqa yana bir misolga izoh beradigan bo'lsak, "bluestocking", bu misol so'zma so'z tarjima qiladigan bo'lsak, 'blue' – havorang, ko'k, 'stocking' esa paypoq degan ma'noni anglatadi. Demak bu so'z " havo rangli paypoq" degani ekan, ammo bahuvrihi sifatida u "***yaxshi ta'lim olgan, ziyoli va yuksak mahoratga ega, oqsuyak ayolni*** " ifodalab kelgan. "Auntie Maud will never marry; she's a bluestocking." Bu misolni tarjima qiladigan bo'lsak, "Auntie Muad hech qachon turmushga chiqmaydi; u oqsuyak xonimlardan. " (2)

Shuningdek, boshqa misollarga ham izoh beradigan bo'lsak, "***half-wit***" - 'aql yarim' deb tarjima qilinsa ham, o'zbek tiliga 'esi past', 'kallavaram' deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Bob bo'yicha xulosa:

Bobimiz bo'yicha shunday xulosalarga kelish mumkinki, o'zbek va ingliz tilidagi bahuvrihilarining o'ziga xos o'xshashliklari va farqlari mavjud va ular tilshunos olimlarning, qolaversa bizning tadqiqotlarimizga muhtoj desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, ingliz tilidagi bahuvrihilar shaxs xarakter- xususiyati bilan birgalikda, jonsiz narsalarning ham belgilarini anglatib keladi, biroq bu izoh o'zbek tilidagi bahuvrihilar uchun unchalik ham mos emas, chunki o'zbek tilidagi bahuvrihilar bevosita shaxs va unga xos bo'lgan xarakter, fazilat, qiliq, uning tevarak atrofdagi kishilarga nisbatan munosabati, kiyimlariga qarab izohlanadigan va tarkibida tana a'zolarini ifodalaydigan so'zlar qatnashgan bo'ladi. Bularga "jonkuyar, xushfe'l, lattachaynar, jabrdiyda, yolg'izoyoq" kabi bahuvrihilarining anchasini misol sifatida ham keltirib, ularning har biriga alohida, alohida izoh berildi. Bundan tashqari bahuvrihining tabiatini ochib berish uchun o'zbek tilining izohli lug'atidan to'plangan misollarnin h tahlili va izohlari ham berildi. Qolaversa ingliz tilidagi bir qancha bahuvrihilarga ham to'xtalib o'tildi va tahlil qilindi. Ulardan "bluestocking, longlegs, white-collar, egghead, highbrow" va boshqalar.

XULOSA

Qo'shma so'zlar va ularning alohida turi hisoblangan aniqlovchili (attributiv) qo'shma so'zlar, yoxud "bahuvrihi"larning o'rganilish tarixi mavzusi bo'yicha biz tanishgan adabiyotlardan kelib chiqqan holda, xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mazkur so'z yasash usullari dunyo tilshunoslari tomonidan astoyidil tadqiq qilingan. Ayniqsa Yevropa tilshunoslarining bu mavzu borasidagi ishlari e'tiborga loyiq. Chunonchi, ingliz va nemis tili mutaxassislari qo'shma so'zlarni klassifikatsiyasi va differentsatsiyasi, ya'ni ularni guruhlariga bo'linish imkonlari va o'zaro farqli tomonlarini ajratib o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratishgan va muayyan ilmiy to'xtamlarga kelishgan.

Shu jumladan, roman –german oilasiga mansub bo'lgan nemis tilida qo'shma so'zlar 4 ta guruhga bo'linib o'rganilgan, jumladan:

1. Attributive Zusammensetzungen (aniqlovchili qo'shma so'zlar)
2. Kopulative Zusammensetzungen (kopulativ qo'shma so'zlar)
3. Zusammenrueckungen (siqishtilrgan qo'shma so'zlar)
4. Zusammenbildungen (qo'shib yasalgan qo'shma so'zlar)

Ma'lumki, attributiv qo'shma so'zlar bir biri bilan qo'shma so'z komponentlarining aniqlovchi-aniqlanmish xususiyatlariga qarab belgilanadi. Odatda qo'shma so'zning birinchi komponenti ikkinchisini aniqlab keladi yoki teskarisi ya'ni ikkinchi komponent birinchinchisini aniqlab keladi, tobe- hokim so'zlar o'rinlarini almashtiradilar (das Jahrhundert, das Jahrzehnt). E'tiborlisi shundaki, qo'shma so'zlar komponentlarining o'zni almashuvi bilan urg'ular o'zni ham almashadi. Bu turdagi qo'shma so'zlar komponentlari otlardan yoki sifatlardan tashkil topishi mumkin. Masalan , *Schwarzbrot*, *Tischlampe*, *Tageslicht*, *Sonnenstrahl*, *dunkelrot* kabi. Xuddi shu guruhga mazkur bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot obyekti bahuvrihilar ham kiradi. Misol uchun, *Graukopf*, *Rotkaepchen*.

Kopulativ qo'shma so'zlarda komponentlar sintaktik , semantik jihatdan teng huquqli bo'ladilar, yoxud ularda tobelik yoki hokimlik bo'lmaydi. Ularning

ma'nosi teng huquqlilik asosida mushtaraklashadi, chunonchi: *Strichpunkt, taubstumm, dreizehn, zweiundzwanzig, bittersuess*.

Siqishtirilgan qo'shma so'zlar(Zusammenrueckungen) bu xil qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq erkin bog'langan komponentlardan ba'zan xatto gaplardan iborat bo'ladi. Bunda erkin so'zlar yoki biror gap ichidagi so'zlar – har bir gap bo'lagi o'z o'rnida qo'shib (siqib olib kelinib) qo'llaniladi. Har biz so'z o'zining ma'no mustaqilligiga ega bo'ladi va gap nima haqida ketayotganligi yaqqol tushunib turiladi. Ayrim hollarda, ma'no ko'chishi ro'y beradi, jumladan, *Vergissmeinnicht, Einmaleins, derart, infolge, stehenbleiben* kabilar. To'la bir gapni qo'shib yozilishini misol keltiramiz. Du bist zu spaet. – Kam der Buss nicht zur rechten Zeit. Lass deine Ausrede “ Eskamderbussnichtzurechtenzeit!”

Qo'shib yasalgan qo'shma so'zlar(Zusammenbildungen) bu tur qo'shma so'zlar ikki leksikologik jarayon- vosita asosida yasaladi. Ularning komponentlaridan biri yasama so'z bo'lib, tilda alohida qo'llanilmaydi. Masalan, *Fruehaufsteher, Inbetreibsetzung, blauaeugig* kabilar.

Qolaversa ingliz tilshunos olimlari ham qo'shma so'zlarni morfologik va semantik jihatdan qunt bilan o'rganishgan. Qo'shma so'zlardagi komponentlarning o'zaro ma'no munosabatlarga ko'ra ingliz tilida ular ham quyidagi 4 guruhga bo'linadi:

- 1.Endosentrik
- 2.Ekzosentrik(shuningdek “bahuvrihi”)
- 3.Kopulativ (shuningdek “dvanda”)
- 4.Appozitiv

Endosentrik qo'shma so'zlar aniqlovchi aniqlanmishga bo'linadi ya'ni birinchi so'z ikkinchisini (ikkinchi komponentni) ikkinchi komponent esa birinchisini aniqlab kelishi mumkin. Misol uchun, *housekeeper, cargo, caretaker* va boshqalar.

Yuqoridagi berilgan misollarda *housekeeper* so'zida asosiy ma'no “keeper” negizidan anglashiladi, chunki u “ asrovchi, saqlovchi” degan ma'noni bersa, ‘house ‘ so'zi qo'shib uning qanday turdagi saqlovchi ekanini bildirgan ya'ni

aniqlab kelgan” uy qo‘riqchisi”. “Cargo” so‘zi ham qo‘shma so‘zning endosentrik turiga mansub bo‘lib, unda ikkinchi so‘z birinchi so‘zni aniqlab kelgan. Negaki, cargo so‘zi ‘yuk’ degan ma’noni beradi va so‘zma so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak ‘mashinada boruvchi’ degan ma’noni bildiradi.

Ingliz tilida qo‘shma so‘zlarning ikkinchi turi bu *ekzosentrik* qo‘shma so‘zlardir. Ta’rif beradigan bo‘lsak bu turdagi qo‘shma so‘zlar ikkita so‘z negizdan tashkil topadi, lekin bu negizlar ikkalasi birgalikda boshqa bir semantik birlikni anglatadi. Ulardan hech biri ko‘pchilik hollarda to‘laligicha o‘z ma’nosida kelmaydi va ulardan ma’no anglashila olmaydi. Agar misol keltirsak, **“barefoot”**- oyoqyalang. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda birinchi ma’no “oyog‘ida hech narsa kiyib olmagan odam” tushunilsa, keyingi ma’no esa ko‘chma “kambag‘al odamni” ifodalab kelgan.

Ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning uchinchi turi bu *kopulativ* qo‘shma so‘zlar hisoblanadi. Bunday qo‘shma so‘zlarda har bir komponent o‘z ma’nosini saqlagan holda uchinchi bir narsa hodisani nomlaydi. Masalan, **“fourteen”** so‘zi ‘four’-‘to‘rt’, ‘teen’-‘o‘n’ ikkita o‘z ma’nosidagi so‘zlar qo‘shilmasidan biz uchinchi bir so‘z, ‘o‘n to‘rt’ sonini anglaymiz. Yana bir boshqa misol keltiradigan bo‘lsak, **“sleepwalk”**-‘uxlamoq yurmoq’ bu degani uchinchi bir ma’no “yurganida ham hamisha uyqusirab yuradigan odam”ni anglatadi.

Qo‘shma so‘zlarning navbatdagi va oxirgi turi bu *appozitiv* qo‘shma so‘zlardir. U shunday komponentlardan iboratki, ular o‘z zid ma’nolarini saqlagan holda uchinchi bir narsa hodisani nomlaydi. Masalan, actor-director- direktor sahnada yoki kinoga boshchilik qiladigan shaxs, aktyor esa u olayotgan filmda shunchaki rol ijro etadigan shaxsdir. Mantiqan ular bir birlariga ma’no jihatdan va bajaradigan vazifalari jihatidan qarama qarshi hisoblanadilar, lekin yuqoridagi qo‘shma so‘z misolida biz bitta filmni suratga olish jarayonida ham direktor ham aktyor vazifasini bajarayotgan shaxsni tushunamiz.

Endi o‘zbek tilidagi attributiv qo‘shma so‘zlarga kelsak, bu atama hali tilshunoslarimiz va tilimiz uchun ham yangi ekanligini hisobga olsak, “bahuvrihi” so‘zi kelib chiqish nuqtai nazaridan sanskrit tilidan olingan bo‘lib, eski hind tilida

“ko‘p guruch” yoki “guruch boyi” ma’nosini anglatadi. Bahuvrihi aniqlovchili (attributiv) qo‘shma so‘zlarning bir turi ; uning ostida inson shaxsi nomlanishi bilan bog‘liq holda yasalgan qo‘shma so‘zlar yotadi.

Qolaversa bahuvrihining boshqa attributiv qo‘shma so‘zlardan farqlariga, u orqali ifodalanilayotgan kimsa ma’nosi ko‘chma - metaforik-metonimik va sinekdoxadan foydalanilib ma’no anglashilish xususiyatga egaligi ,ya’ni bu qo‘shma so‘zlar ostida asosan odam tushunilishiga keng qamrovda ta’rif berib o‘tdik. “Xumkalla” bahuvrihisi ostida ahmoq odam tushunilishi, “xum “va” kalla” so‘zning lug‘aviy ma’nolari soyada qolishi va ko‘rinmasligiga ishonch hosil qildik. O‘z o‘rnida izohli lug‘atimizdan topilgan bahuvrihilarni ham guruhlariga ajratib, guruhlarini esa ular anglatayotgan ma’nolar orqali guruhchalarga ham bo‘ldik.

Shu jumladan, tub ma’nolarigacha muayyan shaxsning xarakterli xususiyatlarini anglatuvchi qo‘shma so‘zlarni ijobiy va salbiyga

a) yanada aniqroq ko‘rsatsak, *nafs quli bo‘lgan kimsalarning xarakterini ifodalash uchun qo‘llaniladigan bahuvrihilar: **ajdarnafs, badnafs, yebto‘ymas, xunxo‘r, etxo‘r, odamkush, qonxo‘r;***

b) *hammanig nazarida yaxshi xulqi va o‘zini tutishi, gapirishi, va hatto o‘ylashi bilan ham samimiy qiyofada namoyon bo‘luvchi insonlarni nomlaydigan bahuvrihilar: **bulbulnavo, otashzabon, juvonmard, jonfido, jonkuyar, jahonbaxsh, kamsuqum, kamgap, mehmondo‘st, nekbin, nekqadam, oliyhimmat, sobitqadam, xushtakalluf, xushfe‘l, xushchaqchaq, xushxulq, xushovoz, xushtabassum, sertavoze** kabilar;*

c) *zamondoshlari orasida hech qanday obro‘ga ega bo‘lmagan va faqat o‘z bilganicha ish tutadigan odamni tasvirlash uchun quyidagi salbiy ma‘nodagi bahuvrihilardan foydalanamiz: **betgachopar, banginamo, balandparvoz, badhavo, badxulq, badfe‘l, badrashk, badmast, badkor, badkirdor, ishbuzuqi, onaxotin, oyimtilla, oyimsupurgi, orabuzar, tartibbuzar, tilyog‘lama, xudobezor(i), xudobexabar, xudotars, o‘zbilarmon, o‘zboshimcha** kabi.*

d) *hayotiy lavhalar, muhit, vaziyat taqozosiga qarab ish ko‘rmaydigan, o‘z fikri hayoli bilan bo‘lib, ko‘zlagan maqsadini amalga oshirish yoki nafsoniyatini*

qondirish bilan mashg'ul bo'ladigan shaxslarni ifodalash uchun esa: **araqxo'r, boqibeg'am, balandparvoz, badxulq, badjahl, badgumon, badaxloq, valakisalang, gapsotar, dilsiyoh, damduz** kiritish mumkin.

e) *ayrim kishilar tabiatan va aqlan ojiz bo'lib, obyektiv borliq mushohadasida qiynalishadi:* **kamfahm, kaltafahm, kamhafsala, kallavaram og'irkarvon** kabilar.

f) *ayrimlar tabiatan yalqov:* **ishyoqmas, salqintob**

g) *ayrim kishilarga esa Xudo hayot va uni idrok qilish qobiliyatini bergan :* **nuktadon, nuktafahm, nozikfahm, nozikta'b, kabilardir.**

Endigi guruhga esa tarkibida tana a'zolarini ifodalovchi so'zlar qatnashgan, insonning tashqi ko'rinishi va ichki hislarini ifodalovchi bahuvrihlarni kiritdik.

a) *tashqi ko'rinishni ifodalovchilar:* **devqomat, do'ngpeshona, yelpishtovoq, yaltirbosh, jayron ko'z, zeboqad, zag'chako'z, kallaxum, kamgo'sht, kamsaqol, kampirdahan, noziknihol, oyparcha, oftobro'y(a), olako'z, oqsoqol, parichehra, pariruxsor, pariroy(y), qoramag'iz, qizilmag'iz, qushburun, qoqvosh, qirraburun, qalamqosh, sersavlat, sarvqad, sarvqomat, sohibjamol, sertomir, sersoqol, serkiprik, tanqaburun** va boshqalar.

b) *insonning ichki holati va hislarini ifodalab keluvchilar:* **badnafas, buzuqbosh, yelpishtovoq, yolg'izoyoq, yolg'izqo'l, yalangto'sh, yakkabosh, jigarso'xta, jagarpora, ikkiyuzlama, ikkiyuzlamachi, ikkiqat, ichkuyar, ko'zbo'yamachi, kalondimog', kamsuhan, otashzabon, og'iroyoq, oqmiya(eshakmiya), ochko'z, otashqalb, oyoqyalang** kabilar.

c) *qolaversa ism sifatida qo'llaniladigan bahuvrihilar:* **Gulchiroy, Gulandom, Gulbadan, Gulchehra, Gulrux, Gulyuz, Gulruxsor, Sarvinoz** kabi.

Shu asnoda biz bitiruv malakaviy ishga astoyidil yondashib, uni hamma talablar darajasida imkon qadar to'liq bajardik desak mubolag'a bo'lmaydi. Garchi bahuvrihi termini ona tilimiz uchun yangilik kasb etsada, u biz kundalik nutqimizda qo'llaydigan qo'shma so'zlardir. Ular nafaqat nutqimizni bezaydi, balki ona tilimiz yuksalishiga, boyishiga ham xissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent “Ma'naviyat” 2008.
2. A. Iskos, A. Lenkova. Deutsche Lexikologie.- Ленинград, 1970.
3. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent.1995.
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
5. Bruce Hayes. Introductory Phonology. Wiley, 2009.
6. Contemporary Linguistics: An Introduction. William O'Grady, J.Archibald, M. Aronoff, and J. Rees-Miller, Bedford/St. Martin's. 2001.
7. Cross-Disciplinary Issues in Compounding. Amsterdam, Benjamins. 2010.
8. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Ilm – ziyo, 2010.
9. Hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent: Fan, 1957.
10. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I, II jild. Toshkent: Fan, 1966.
11. James R. Hurford, Grammar: A Student's Guide. Cambridge University Press, 1994.
12. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2005.
13. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T.: Toshkent, 1995.
14. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
15. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
16. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. I va II qismlar. Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
17. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

18. Sidney Greenbaum, Oxford English Grammar. Oxford University Press, 1996.
19. The Oxford Handbook of Compounding, eds. Lieber, Rochelle & Pavol Štekauer, Oxford: Oxford University Press. 2009.
20. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
21. G‘ulomov A., Asqarova A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
22. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
23. Word-formation in English. Cambridge University Press, Cambridge. 2003.
24. Journallar: “O‘zbek tili va adabiyoti”. O‘zFA. Toshkent. 2014. 4-son
25. Ilmiy to‘plamlar: ToshDU ilmiy asarlari. Tilshunoslik masalalari (1991-2007 yy).

Lug‘atlar:

26. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – 1-jild. 2006.
27. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – 2-jild. 2006.
28. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – 3-jild. 2007.
29. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – 4-jild. 2008.
30. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – 5-jild. 2008.

INTERNET MANBALARI:

1. [http://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Compound_\(linguistics\)&oldid=650589590.](http://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Compound_(linguistics)&oldid=650589590)
2. [http://Compounding - Definition and Examples of Compounding Words in English.htm.](http://Compounding - Definition and Examples of Compounding Words in English.htm)
3. http://en.wikipedia.org/w/index.php?title=English_compound&oldid=644411395
4. [http://UsefulEnglish.ru.](http://UsefulEnglish.ru)
5. [http://Useful English Stress in Compound Words.htm.](http://Useful English Stress in Compound Words.htm)
6. [http://Compound Word Lists Complete.htm.](http://Compound Word Lists Complete.htm)
7. [http://compound word - definition and examples.htm.](http://compound word - definition and examples.htm)
8. www.facebook.com/learnish
9. [British Dictionary definitions for bahuvrihiExpand](#)
10. www.onatili.uz